

GOLDEN BRAIN

Scientific Journal

ISSN: 2181-4120



Volume 1, Issue 33



2023/33
December

ISSN 2181-4120
VOLUME 1, ISSUE 33
DECEMBER 2023



<https://researchedu.org/index.php/goldenbrain>

**“GOLDEN BRAIN” SCIENTIFIC JOURNAL
VOLUME 1, ISSUE 33, DECEMBER, 2023**

EDITORIAL BOARD

G. Kholmurodova

Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

A. Madaliev

Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University

G. Sotiboldieva

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Rashidova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University

D. Darmonov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

X. Abduxakimova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

U. Ruzmetov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan

M. Yusupova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University

M. Kambarov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University

S. Sadaddinova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of Information Technologies

M. Fayzullaev

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University

Z. Muminova

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

B. Kuldashov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine

Kh. Askarov

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute

S. Nazarova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University

O. Rahmonov

Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute

G. Tangirova

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

Z. Koryogdiev

Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University

S. Ubaydullaev

Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology

R. Yuldasheva

Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University

M. Yuldashova

Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University

Editorial Secretary: J. Eshonkulov

OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA OZUQAVIY BARQARORLIK (NO'XAT)

Temurova Aziza

Toshkent kimyo-texnologiya instituti
Shahrisabz filiali 17-21 guruh talabasi

Safarov Shaxzod

Toshkent kimyo texnologiya instituti
Shahrisabz filiali 22-20 guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada dukkakli don ekinlaridan biri bo'lgan no'xat o'simligining botanik ta'rifi, kimyoviy tarkibi va dorivorlik xususiyatlari hamda inson organizmiga ta'siri va ishlatilishi batafsil berilgan.

Kalit so'zlar. *No'xat, oqsil, vitamin, aminokislota, dorivor, inson organizmi.*

ABSTRACT

In this article reviewed detailed chickpeas one of the Legumes which has a botanical description, chemical composition, and medicinal properties, as well as its effects and use on the human body.

Keywords: *Chickpea, protein, vitamin, amino acid, medicinal, human organism.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 iyuldagi "Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4406-sonli qarorida respublikaning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sohasidagi salohiyatini yanada oshirish, olib borilayotgan islohotlar va zamon talabiga to'liq javob

beradigan ishlab chiqarish, qayta ishlash, standartlash hamda agrobiznes yo‘nalishida konsalting, marketing xizmatlarini rivojlantirish va ilmiy tadqiqotlarga asoslangan intensiv agrosanoat tizimini tashkil qilish, oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish, sohaning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va agrar sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish maqsadida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy turlarini qayta ishlash va eksport qilishning prognoz ko‘rsatkichlar tasdiqlangan bo‘lib, ushbu prognoz ko‘rsatkichda dukkakli don ekinlaridan biri bo‘lgan no‘xat ekinini 2021 yilda 30,2 ming tonna ishlab chiqarish va 23,4 ming tonna qayta ishlash rejalashtirilgan. Bugungi kunda mamlakatimizning lalmikor va sug‘oriladigan yerlaridan samarali foydalanib, tuproq unumdorligini oshirish, kam energiya va resurslar sarflab tannarxi past biologik toza mahsulot olish, aholini oqsilga bo‘lgan talabini qondirish hozirgi kundagi dehqonchilikdagi eng muhim muammolardan biridir. Ana shunday muammolarni hal qilishda no‘xat ekini muhim ahamiyat kasb etadi. No‘xat dukkakli don ekinlaridan biri bo‘lib, yer yuzi dehqonchiligida va O‘zbekistonda keng tarqalgan bir yillik o‘simlik hisoblanadi. Poyasi baquvvat, sershox bo‘lib o‘sadi, yotib qolmaydi. Barglari toq patsimon, gullari odatda oq yoki qizg‘ish binafsha rang, dukkaklari kalta, qavariq bo‘lib, unda 1-3 tagacha doni bo‘ladi. No‘xat donida 20-30 % gacha oqsil, jumladan 8,3 % gacha alishtirib bo‘lmaydigan aminokislotalar (valin, izoleysin, leysin, lizin, metionin, treonin, treptofan) hamda 13,62 % gacha alishtirsa bo‘ladigan aminokislotalar, shuningdek, 4,32 % lipidlar, 3 % qandlar, klechatka, 43,5 % kraxmal va 3 % pektin bor. No‘xat donlarida ko‘pgina miqdorda vitaminlar, jumladan, karotin, V gramma vitaminlari, vitamin E ham bor. No‘xat makro va mikro elementlarga ancha boy. Unda anchagina miqdorda kaliy, kalsiy, kremniy, magniy, oltingugurt, fosfor, alyuminiy, bo‘r, temir, molibden, selen, rux bor. Tarkibidagi selen miqdori jihatdan no‘xat barcha dukkakli donlar orasidan birinchi o‘rinda turadi.

Foydalanilgan materiallar: Ma‘lumki, oqsil oziq-ovqat sifatini belgilovchi, organizm uchun zarur bo‘lgan organik birikmalardan hisoblanadi. O‘z navbatida oqsil

tarkibi almashinadigan va almashinmaydigan aminokislotalarning asosiy manbalari dukkakli o'simliklar hisoblanadi. Almashinmaydigan aminokislotalardan lizin, metionin, arginin, leysin va izoleysin muhim ahamiyatga ega. Jumladan, lizin organizmning o'sishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Dukkakli don ekinlari tarkibida lizin miqdori 100 g don tarkibida soya donida 24,0 g, loviyada-23,3 g, no'xatda-22,7 g va bug'doyda-2,8 g ni tashkil etadi. Dunyo bo'yicha o'simlik oqsiliga bo'lgan talab hamon yuqori. Sababi, dukkakli don ekinlar ekin maydonlarining qisqarganligi va ularning biologik, fiziologik xususiyatlari kam o'rganganligidir. Dukkakli - don ekinlari, jumladan, no'xat va loviya juda ham foydali o'simlik hisoblanadi. Chunki, ular fitomeliorativ ahamiyatga ega: tuproqning unumdorligini oshiradi, yerning ekologik va meliorativ holatini yaxshilaydi. Ularning doni, poxoli va ko'k poyasi oqsil hamda boshqa to'yimli moddalarga boy. No'xat ozuqabopligi bilan ko'pgina dukkakli don ekinlar donidan ustun turadi, tarkibida 20,1-32,4 % gacha oqsil bo'ladi.

Donining qimmatbaho oziq-ovqatlik va shifobaxshlik xususiyatlari, azotsiz ekstraktiv moddalrining mo'l bo'lishi, lalmikor yerlarda yetishtirilganida esa doni tarkibidagi oqsil miqdorining 32 % va yog' miqdorining 8 % gacha bo'lishi unga talabning toboro oshib borishiga sabab bo'lmoqda. No'xat va mosh o'simliklari Sharq mamlakalari va Markaziy Osiyo respublikalarida, shu jumladan, O'zbekistonda qadim-qadimdan ekib kelingan. Ular donidan to'yimlilik yuqori, quvvatbaxsh va shifobaxsh taomlar tayyorlangan. Olingan natijalar va ularning tahlili. No'xat donida 20-30 % gacha oqsil, jumladan 8,3 % gacha alishtirib bo'lmaydigan aminokislotalar (valin, izoleysin, leysin, lizin, metionin, treonin, treptofan) hamda 13,62 % gacha alishtirsa bo'ladigan aminokislotalar, shuningdek, 4,32 % lipidlar, 3 % qandlar, klechatka, 43,5 % kraxmal va 3 % pektin bor. No'xat donlarida ko'pgina miqdorda vitaminlar, jumladan, karotin, V gramma vitaminlari, vitamin Ye ham bor. No'xat makro va mikro elementlarga ancha boy. Unda anchagina miqdorda kaliy, kalsiy, kremniy, magniy, oltingugurt, fosfor, alyuminiy, bo'r, temir, molibden, selen, rux bor. Tarkibidagi selen

miqdori jihatdan no‘xat barcha dukkakli donlar orasidan birinchi o‘rinda turadi . Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, biz oqsilga boy bo‘lgan no‘xat o‘simligi donini qayta ishlab ozuqaviy no‘xat uni ishlab chiqarish bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib bormoqdamiz. No‘xat uni quritilgan no‘xat donini maydalash orqali tayyorlanadi. No‘xat oqsil va tolaga, shuningdek, bir qancha minerallarga va B vitaminlariga boy bo‘lgani uchun un juda to‘yimli hisoblanadi. No‘xat unidan foydalanish protein va to‘la iste‘molni oshirishning ajoyib usuli hisoblanadi. No‘xat donidan tayyorlangan un ma‘lum vitamin va minerallarni iste‘mol qilishni oshirishga yordam beradi. No‘xat unida 4 milligrammdan ortiq temir (25%), 150 milligramm magniy (36%), 2.6 grammdan ortiq rux (24%) va 400 mikrogram foliy kislotasi mavjud. No‘xat uni ham tiamin, fosfor, mis va marganetsning ajoyib manbai hisoblanadi. Qayta qilingan bug‘doy uni o‘rniga no‘xat unidan foydalanish hosil bo‘lgan taomning ozuqaviy qiymatini sezilarli darajada oshiradi, chunki gramm un oq unga qaraganda ko‘proq protein, to‘la va vitaminlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, minerallarga boy bo‘lgan no‘xat uni inson organizmi uchun foydali hisoblanib, kuchli suyaklar va tishlar, kuchli immunitet va mushaklar va asablarning normal ishlashi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. No‘xat va no‘xat unida chidamli kraxmal mavjud bo‘lib, u yo‘g‘on ichakda yashovchi foydali bakteriyalar uchun oziq-ovqat manbai hisoblanadi. Bu bakteriyalar tanani semizlik, yo‘g‘on ichak saratoni va diabet kabi metabolik kasalliklardan himoya qilishga yordam beradi.

Xulosa. Dukkakli don ekinlaridan biri bo‘lgan no‘xat o‘simligi oqsilga boy bo‘lgan o‘simlik hisoblanib, inson organizmi uchun zarur bo‘lgan oqsil muammosini hal etishda yordam beradi va undan ishlab chiqarilgan no‘xat uni qimmatli parhez mahsulotdir. No‘xat unidan pishirilgan mahsulotlar sog‘lom va ajoyib ta‘mga ega. Mahsulot sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlaydigan odamlar uchun tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Food Safety Handbook RONALD H. SCHMIDT, PhD, and GARY E. RODRICK, PhD, are Professors of Food Science and Human Nutrition at the University of Florida in Gainesville, Florida.

2. «Фитотерапия с основами клинической фармакологии» под ред. В.Г. Кукеса. – М.: Медицина, 1999

3. Oziq ovqat texnologiyasi asoslari M.G'.Vasiyev Q.O.Dadayev I.B.Isaboev Z.Sh.Sarayeva Z.J.G'ulomova

4. <https://uz.domesticfutures.com/vino-iz-hurmy-v-domashnih-usloviyah-prostye-retsepty-3844>

TURKIY XALQLAR FOLKLORINING BILIMDONI

Abbos Tursunqulov

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'zbek
tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari nomzodi

ANNOTATSIYA

Maqolada folklorshunos, harbiy darajasi polkovnik bo'lgan Cho'qon Valixonovning nafaqat qozoq, balki turkiy xalqlar xalq og'zaki ijodi taraqqiyotiga qo'shgan hissasi aniq misollar bilan ochib berilgan.

***Kalit so'zlar:** Folklorshunos, xalq og'zaki ijodi, madaniy meros, ekspeditsiya, tarjima, ilmiy, badiiy.*

ABSTRACT

In the article, the contribution of Chokhan Valikhonov, a folklorist, a military rank of colonel, to the development of the folklore of not only Kazakh, but also Turkic peoples is revealed with specific examples.

***Key words:** Folklorist, folklore, cultural heritage, expedition, translation, scientific, artistic.*

АННОТАЦИЯ

В статье на конкретных примерах раскрывается вклад фольклориста Чохана Валихонова, воинского звания полковника, в развитие фольклора не только казахских, но и тюркских народов.

***Ключевые слова:** фольклорист, фольклор, культурное наследие, экспедиция, перевод, научный, художественный.*

KIRISH

XIX asrdayoq Markaziy Osiyolik olimlar rus va yevropa adabiy jamoatchiligiga tanila boshladi. Shulardan biri olim, folklorshunos, harbiy darajasi polkovnik bo'lgan Cho'qon Valixonov edi. U nafaqat qozoq, balki turkiy xalqlar xalq og'zaki ijodiga katta qiziqish bilan qaraydi. Rus maktablarida o'qib, ta'lim olib, qozoq madaniyatini keng miqyosda targ'ib qiladi. Rus olimlari, ijodkorlari bilan yaqindan aloqada bo'ladi. Bor yo'g'i o'ttiz yillik qisqa umri davomida ulkan ishlarni amalga oshirgan.

Ch.Valixonov bor yo'g'i o'ttiz yil umr ko'rgan bo'lsa ham (1835-1865) davrida O'rta O'siyo va Qozog'iston xalqlari madaniyati tarixining yirik tadqiqotchisi sifatida g'oyatda boy madaniy meros qoldirdi. Uning butun ijtimoiy-siyosiy, imiy va adabiy faoliyati xalqlar o'rtasidagi do'stlikni barqaror qilishga, madaniy aloqalarni rivojlantirishga qaratildi.

Otasi Chingiz Valixonov Ko'kchatov okruginig sultoni vazifasini bajargan bo'lsa ham, o'z davrining a'rifatparvar va o'qimishli xokimlaridan edi. Shu sababli ham Cho'qonning yoshlik davridan boshlab bilim olishiga, rus va yevropa tillarini, madaniyatini, adabiyotini o'rganishga alohida e'tibor beradi. Cho'qon dastlab Qushmurundagi shaxsiy qozoq maktabida va u yerda arab yozuvini o'rgandi.

1847 yilda Omskka kelib sibir kabetlar korpusiga o'qishga kirdi va bu yerda rus revalutsion demokratlari – Belinskiy, Gersen asarlarini o'qib demokratik g'oyalari bilan tanishdi. Bundan tashqari bilim yurtida geografiya, tarix, zoologiya, fizika, matematika, botanika, geodeziya, filologiya, rasm, hattotlik, shuningdek, falsafa, rus, fransuz, nemis, turk, mongol, arab, fors tillari ham o'rgatilar edi. Tabiatan tarashqoq va qobiliyatli bo'lgan Cho'qon 1853 yilda kabetlar korpusini muvaffaqiyatli tugallaydi va shu davrdan boshlab uning adabiy faoliyati boshlanadi.

Ch.Valixonov 1855 yildan boshlab, general Gasford boshchiligida Markaziy Qozog'istonda uyushtirilgan ekspeditsiyasida ishtirok etib, qozoq xalqining tarixi, urf-odatlar va maishiy turmush tarzi bilan bog'liq g'oyatda boy adabiy manbalar to'playdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

1856 yildan boshlab yirik harbiy-ilmiy ekspeditsiyalarda ishtirok etgan Ch.Valixonov Issiqko‘l va Markaziy Tyan-Shanda yashaydigan qirg‘iz ovullarida xalq oqinlaridan, jarchilaridan epik poemalar, afsonalar, ertaklar yozib oldi. U qirg‘iz xalqining qomusi bo‘lgan “Manas” eposini birinchi bo‘lib ilmiy asosda yozib oldi va rus tiliga tarjima qildi. Shuningdek, hali yevropa xalqlari unchalik tanish bo‘lmagan bu eposni “Iliada” va “Odiseya” bilan tenglashtirib, fanda birinchi marta tarixiy-adabiy jihatdan tahlil etdi.

Cho‘qon Valixonov Yevropa sharqshunoslari orasida yosh, kelajagi porloq, bilimdon, izlanuvchan olim sifatida tan olindi. O‘sha davrning yirik olimlari va adiblari bo‘lmish G.N.Potyantin, V.I.Lomanskiy, shoir S.F.Durovlar g‘oyatda yuqori baholadilar va uning ilmiy ishlaridagi yangiliklarni o‘z vaqtida e’tirof etdilar.

Uning ilmiy va adabiy faoliyati bilan tanishgan buyuk rus yozuvchisi M.Dostoevskiy unga katta xayrixohlik bilan qaraydi va shoir S.F.Durovning yordamida u bilan tanishib, do‘st bo‘lib qoladilar. Ch.Valixonov do‘sti Dostoevskiyga yozgan xatlaridan birida shunday deydi: “Men insonning kayfiyati haqida yozishga usta emasman, lekin ishonamanki siz albatta bilasiz men qanchalik sizni hurmat bilan sevaman”. Dostoevskiyning Cho‘qonga yozgan xatida bu hurmat va ehtiromga yarasha g‘oyatda nozik did bilan javob berilganligi ko‘rinadi. Dostoevskiy o‘z yuragini ochib shunday deydi: “Siz meni yaxshi ko‘raman deb yozibsiz, Men sizga hayqirmasdan aytishim lozimki, men Sizni yaxshi ko‘raman. Men hech kimga, hatto tutingan akalarimga ham Sizchalik hush kayfiyatda bo‘lmaganman”. Dostoevskiy hamisha, xoh shaxsiy uchrashuvlarda, xoh xat orqali yozishmalarda bo‘lsin doimo Cho‘qonga maslahat berib, ona yurtga sitqidildan xizmat qilishni, turkiy xalqlar tarixini, etnografiyasini, og‘zaki va yozma ijodini o‘rganishni iltimos qiladi, uning burchi ekanligini har doim uqtiradi.

NATIJALAR

1858-1859 yillarda Qulji va Qoshg'arda uyushtirilgin ekspeditsiyada ishtirok etib O'rta Osiyo xalqlari - o'zbeklar, tojiklar, uyg'urlar, qirg'izlarning ijtimoiy - iqtisodiy hayoti, turmush tarzi, ularning odatlari haqida so'z yuritadi.

1864 yilda Janubiy Qozog'istonni Rossiyaga qo'shib olish uchun uyushtirilgan harbiy ekspeditsiyaga taklif etiladi va "Avliyo ota" qal'asi uchun olib borilgan jangda ishtirok etadi. General Chernyaevning qattiqqo'lligida va ... siyosatidan norozi bo'lgan bir guruh ofitserlar bilan Ch.Valixonov ham ekspeditsiyada ishtirok etishdan bosh tortadi. 1865 yilda uning sog'ligi yomonlashib vafot yetadi.

Ch.Valixonov qisqa, lekin mazmundor hayot kechirdi. XIX asr O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlari hayotini, tarixini, madaniyatini har tomonlama keng ko'lamda o'rgangan olim sifatida boy adabiy meros qoldirdi. Qozog'iston Fanlar akademiyasining tarix, arxeologiya va etnografiya instituti Ch.Valixonov nomi bilan ataladi.

Ch.Valixonov turkiy xalqlar og'zaki ijodning nodir namunalarini to'plagan va ilmiy jamoatchilikka ma'lum etgan olim sifatida folklorshunoslik fanida o'z o'rniga ega.

O'zi voyaga yetgan zaminda katta adabiy muhit bor edi. Buvisi Oyxonim xalq og'zaki ijodini yaxshi bilgan donishmand ayollardan bshlib, og'zaki ijodning sehrli sirlarini Cho'qonga singdirishga harakat qildi. Cho'qonni dastlab xalq donishmandligi, urf-odatlari bilan tanishtirgan ham buvisi Oyxonim edi.

Ch.Valixonov o'qish davrida ham, undan keyingi faoliyatida ham xalq og'zaki ijodini to'plashga alohida e'tibor berdi. U hali bolalik davridayoq qozoq xalqining yirik eposlaridan bo'lgan "Ko'zi Ko'rgash" va "Bo'yoqsuluv" ni yozib olgan edi.

Keyinchalik ham qozoq, qirg'iz xalqlari og'zaki ijodini to'plashga ham alohida e'tibor berdi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, u qirhiz xalqining qomusiy asari bo'lgan "Manas" eposining variantini birinchi marta ilmiy asosda o'rgandi va rus tiliga tarjima qildi. Uni tahlil qilib, "Cho'l iliadasi" deb baholadi. "Salibey" eposini "Burgutlar Odieyasi" deb ta'rifladi.

MUHOKAMA

Ch.Valixonov tomonidan yozib olingan “Manas”ning varianti fanda o‘ziga xos originalligi va yagonaligi bilan alohida ahamiyatga ega. Qisqacha mazmunini keltirgan bu variant quyidagidan iborat: Jaqin o‘g‘li Manasga suluv Xonikeyni olib berish uchun qoraxonnikiga sovchi bo‘lib boradi. Lekin qoraxon qizi Xonikeyni Jaqinning o‘g‘li Manasga berishni istamaydi. Tahqirlangan Manas Xonikeyni zo‘rlik bilan oladi. Ko‘katoynikida bo‘lgan munozara-tortishuvda zo‘rlik va adolatsizlik ko‘rsatgan qo‘ng‘irboy bilan Jo‘laylarni Manas o‘ldiradi. So‘ngra Manas ham kasal bo‘lib o‘ladi.

XIX asrning o‘rtalarida va XX asrning boshlarida turkiy xalqlar eposi yeng rivojlangan davr edi. Shuning uchun Ch.Valixonov yozib olgan og‘zaki ijod namunalari o‘zining o‘zining qadimiyligini saqlagan holda yetib kelganligi va o‘z vaqtida yozib olinganligi bilan qimmatlidir.

Ch.Valixonov “Manas” variantini yozib, bu variantning rus tilida Veselovskiy tomonidan qilingan tarjimasini hozircha yagona nusxa sifatida alohida ahamiyatga ega.

“Manas” eposi bilan bog‘liq ishlarida “Manas” eposining turkiy xalqlar orasida tutgan ahamiyatini alohida ta’kidlagani holda uning tarqalish jarayoni haqida ham qiziqarli faktlar bayon etadi. U Manas asosida qilinajak voqealarning bir qismi Toshkent, Andijon, Farg‘ona tomonlarda ro‘y berganligini aytadi. Shu bilan birga Andijon tarafda yashaydigan qirg‘izlar orasida “Manas” eposi keng tarqalganligi to‘g‘risida fikr yuritadi. Olimning bu fikri zamirida o‘zbek baxshilari repertuarida ham “Manas” eposining variantlari mavjud degan farazni ilgari suradi.

Ch.Valixonov qozoq xalqining “Ko‘zi Kurash” va “Boyonsuluv” eposidan parcha yozib olgan. Bu eposning 16 ta varianti mavjud yekanligi haqida qozoq olimlari ma’lumot beradilar. Lekin Valixonov yozib olgan variant o‘zining qadimiyligi bilan alohida ahamiyatga ega.

Ch.Valixonov tomonidan yozib olingan qozoq xalqi maqollari turkiy xalqlar donishmandligining yorqin namunasidir:

O‘tkir pichoq qinga xos

Shtrik so‘z jonga xos.

O'lgan arslondan

Tirik it yaxshi.

Shoshma qarg'a.

Tushasan jarga.

Uyqu jonning tinchi,

Imon (vijdon) jonning quvonchi.

Ch.Valixonov faqat xalq og'zaki ijodining to'plovchisigina bo'lib qolmay, bilimdon tadqiqotchisi hamdir. U qozoq poeziyasining formalari haqida fikr yuritib, ularni quyidagi qismlarga klassifikatsiya qiladi:

1. Jar;
2. Yig'lov;
3. Qaim – aytishuvning bir turi;
4. Qora o'lan – to'rtliklardan iborat bo'lib, turli tarixiy epizodlarni tashkil qiladi.
5. O'lan;

Olim xalq poeziyasining bu jihatlarining har biri haqida to'xtalib, ularni o'zlariga xos xususiyatlarini ko'rsatadi.

XULOSA

Xullas, Ch.Valixonov folklorshunos sifatida fan uchun g'oyatda qimmatli meros qoldirdi. Olim tomonidan to'plangan folklor asarlari turkiy xalqlar og'zaki ijodini eng rivojlangan va birinchi marta bir davrda yozib olinganligi bilan qimmatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Cho%CA%BBqon_Valixonov
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. Birinchi jild. –T: O'zbekiston, 2000 yil.
3. Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. –T: Sharq, 2010 yil.

TOHIR MALIK ASARLARIDA IJTIMOYIY CHEGARALANGAN LEKSIKA (JINOYAT LEKSIKASI MISOLIDA)

To‘rayeva Zarrina Abdimurot qizi

Termiz Davlat Universiteti 1-kurs magistranti

xurramovazarrina7@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada qo‘llanish doirasi chegaralangan leksikaning ekspressiv ma‘no xususiyatlari shuningdek, salbiy ma‘no ottenkasiga ega bo‘lgan Tohir Malik qalamiga mansub Shaytanat romanida keltirigan jinoyat leksikasi haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *Ijtimoiy chegaralangan leksika, sotsiolekt, argo, jargon, laqab.*

Ilmiy va o‘quv adabiyotlarda ijtimoiy dialektlar terminini ko‘plab uchratamiz. Odatda ijtimoiy dialektlar tilning shunday bir ko‘rinishiki, ular adabiy til va uning normalariga mos kelmaydi. Biroq ko‘pgina manbalarda ijtimoiy dialektlarni adabiy tilning u yoki bu jihatlarini ochib beruvchi, to‘ldiruvchi vositalar sifatida qarashlar ham mavjud. Ma‘lumki, ijtimoiy dialektlar umumxalq tilining ma‘lum bir qatlamini tashkil etadi.

Sotsiolingvistikada ijtimoiy chegaralangan leksikaga nisbatan sotsiolekt termini qo‘llaniladi. Sotsiolekt- umumiy ijtimoiy xususiyatlariga ko‘ra birlashgan ayrim guruhlarining lisoniy ehtiyojlarini qondirish uchun nutq amaliyotida ishlab chiqilgan til shakli. Sotsiolekt verbal xulq va ijtimoiy ahvolning muvofiqligini ifodalaydi. Sotsiolektlar kommunikatsiyaning butun bir tizimini ifodalamaydi. Uning asosini milliy tildan deyarli farq qilmaydigan lug‘at va grammatika tashkil qiladi. Sotsiolekt o‘z ichida ma‘lum bir tabaqalar nutqiga xoslangan “argo”, “jargon”, “sleng” kabi turlarga ajraladi. Jargon- biron ijtimoiy guruh vakillarining o‘z nutqi bilan

ko'pchilikdan ajralib turish maqsadida, o'zicha mazmun berib ishlatadigan so'z va iboralar. Masalan, oq (aroq), qizil (vino)-ichuvchilar nutqida. Tilshunoslikka oid aksariyat adabiyotlarda "jargon" bilan "argo" termini farqlanmasdan, aralashtirib yuborilgan. Argo- jargondan farqli ravishda, biron ijtimoiy guruh tomonidan boshqalar uchun atayin tushunarsiz qilib qo'llaniladigan u yoki bu darajadagi yashirin, yasama til. Masalan, o'g'rilar argosida shmon qilmoq, gopstop qilmoq iborolari "o'g'irlamoq" ma'nosida ishlatiladi. Argolar jargoga nisbatan o'zining yashirinlik xususiyati bilan ham ajralib turadi. Shuning uchun ular ko'proq jamiyatning yashirin tabaqalari hisoblangan josuslar, jinoyatchilar, o'g'rilar, giyohvandlar va h.k lar nutqida uchraydi.¹

Iste'dodli yozuvchi Tohir Malikning "Shaytanat" asarida jinoyat olamida taqdiri bir-biriga o'xshamagan, qiyofasi-yu fe'l atvori, dunyoqarashlari bir-biridan tubdan farq qiluvchi obrazlar tasvirlangan. Asarda ismlarga nisbatan ularga atab qo'yilgan laqablar nom o'rnida, ya'ni atoqli ot sifatida ko'p qo'llangan. Avvalo, bu so'zning ma'nosiga izoh beradigan bo'lsak, laqab arabcha so'z bo'lib, biror xususiyatiga ko'ra kishiga hazil qilib yoki masxaralab qo'yilgan nomni, taxalluslar, familiyalarni bildiradi². Masalan, Kesakpolvon, Chuvrindi, O'qilon, Suvilon, Bo'tqa, Xumkalla, G'ilay, Bo'ri, Qassob, Hovuz polvon va hokazo. Ma'lumki, laqablar insonning turli-tuman belgisi, xususiyatlariga qarab qo'yiladi. Shunga ko'ra ular kishilarning qaysi urug' yoki qabilaga mansubligini, ulardagi jismoniy kamchiliklarni, xarakter, fe'l-atvor, gapirish uslubi, kiyinishdagi biror kamchilik yoki o'zgachalikni, kasbini, millatini, kishilardagi shu kabi yaxshi hamda yomon xislatlarni, belgi-xususiyatlarni ko'rsatadi.

Bilamizki, laqab kishilarga tashqi ko'rinishiga nisbatan (Xumkalla, G'ilay), yoki xarakter xususiyatiga nisbatan ko'chma ma'noda (O'qilon, Suvilon), qilgan biror ishga bog'liqlik asosida (Kesakpolvon, Qassob) shaxsga nisbatan nomga aylangan. Demak, laqab - shaxsning tashqi ko'rinishi, mashg'uloti yoki biror xususiyatiga qarab beriladigan ikkinchi nom. Odatda, laqab ishlatilish o'rni va maqsadiga qarab ijobiy

¹ Sh. Usmanova., N. Bekmuxamedova., G. Iskandarova. Sotsiolingvistika. O'quv qo'llanma Toshkent-2014 B;16-17

² . Узбек тилининг изоҳли луғати. -Москва: Русский язык. 1981

yoki salbiy ma'noga ega bo'ladi. Misol uchun "Shaytanat" asarining 1-kitobida Haydar Asrorovga nisbatan Kesakpolvon laqabining qo'yilishi shunday izohlangan: "Qilich ikkinchi piyoladagi choyni ichib ulgurmay eshik ochilib, jussasi kichik, eti ustixoniga yopishgan, qaldirg'och mo'ylabi o'ziga yarashgan odam ko'rindi. Bu odamni yaxshilab tanib oling: Haydar Asrorov, laqabi Kesakpolvon. Asadbekning o'ng qo'l a'yon. Ozg'in, chayir bo'lgani uchun Kesakpolvon, deb atashgandir, desangiz yanglishasiz. Har bir jamoaning ichki tartibi, rasm-rusumi bo'lganidek, bu olamning ham o'ziga yarasha qonun-qoidasi bor. Shulardan biri - bu olamga qadam qo'ygan har bir tirik jonga laqab beriladi. Laqab osmondan olinmaydi, balki xatti-harakati, fe'liga qarab topiladi. Jussasiga qarab tanlanganida Haydar Kesak emas, Toshpolvon yoki Temirpolvon bo'lishi kerak". (1-kitob, 71-b) ...Haydar ikkita dehqonning iziga tushadi. Ularning belbog'ida pul bor deb o'ylaydi. Cho'ntak belbog' kesishda Haydardan o'tadigani yo'q edi... Xullas, belbog' kesildi...Panaroqqa o'tib qarasa, belbog'da sariq chaqa ham yo'q- besh-oltita kesak hafsala bilan terib qo'yilgan. Aslida dehqon shaharda "tahoratga kesak topiladimi, yo'qmi" deb har ehtimolga qarshi belbog'iga tugib olgan edi. O'shanda alamdan bo'zarib turgan Haydarga qarab turib Asadbek rosa kuldi. Laqab ham o'shanda tug'ildi (1-kitob, 72-b).

Asarda Asadbek boshchiligida uyushgan jinoiy to'da nutqida boshqalar uchun biroz tushunarsiz bo'lgan kriminalistik leksikon ya'ni jinoiy leksikaga oid so'zlarni tahlil qilamiz.

— Hofiz, Zelixon Xangriyev kimligini bilmasam yurgan ekanman-da «o'qilonman», deeb kerilib. Haddingdan oshma, bola. Har ishning o'z hadisi bo'ladi. Akademik — o'g'ri. O'g'rilikda unga teng keladigani yo'q (1-kitob, 225-b).

Yuqoridagi tahlillarimizda Akademik so'zini laqab sirasiga kiritmadik sababi bu so'z jinoyat olami vakillari uchun tajribali jinoyatchiga nisbatan qo'llaniladi va kriminalistik vikilug'atlarda ham *Akademik*- tajribali jinoyatchi, avtoritet, degan ta'riflar keltiriladi.

— O'zimning ishim bor. Agar hohlasang... men bilan ishlashing mumkin. Yaqinda katta ov bo'ladi (1-kitob, 328-b).

Asar qahramoni Fedya tomonidan aytilgan” ov boladi” so‘zi katta bir jinoyat sodir etilishiga ishora qiladi. Shuningdek, qahramonlar tilidan o‘ch olinishi kerak bolgan kimsaga nisbatan *o‘lja* so‘zi qo‘llaniladi.

— Bekor aytibsan, itvachcha! — dedi Elchin xirillab. U o‘ljasidan bu gaplarni kutmagan edi .

O‘lishi lozim bo‘lgan o‘ljasi, Noilasining nomini bulg‘ab qo‘ydi (1-kitob, 204-b).

— Bek aka, hammasi pishdi. Uyiga oborib qo‘ydim,—dedi Jamshid.

— Bilmadim... eshitishimcha, «Volga»sini shumon qilib ketishibdi (1-kitob, 141-b).

Jamshid tilidan aytilgan *hammasi pishdi* so‘zi ya’ni hammasi hal bo‘di degan ma’noda kelsa, *shumon qilmoq* o‘girlab ketilmoq ma’nolarini bildirib kelgan. Shuningdek, o‘ldirmoq so‘zini jinoyat olami vakillari turli hil tarzda *gumdon qilmoq, yo‘qotmoq, tinchitmoq* kabi shakllarini qo‘llaydi.

— Bratishka, hozir paxaningning og‘aynisinikiga borasan. Oti nimaydi, Hasanmi? Ha, Opoqingga aytasan: «Hasan amakimni bozorda mentlar tutib oldi, narsalarni gum qilar ekansiz», deysan (2-kitob,17-b).

Bezori to‘dalar, jinoyatchilar va o‘smir yoshlar nutqida uchraydigan *paxani* so‘zi shu guruhlarining eng kuchli ,hammani o‘ziga bo‘ysundira oladigan to‘daboshi yoki o‘g‘riboshiga nisbatan ishlatiladi ammo yozuvchi asarda bu so‘zni ota so‘zi o‘rnida qo‘llaydi. Asarda politsiyachilarni *mentlar, xitlar* deb atashadi va biror jinoiy ish ular tomonidan aniqlanganini sezishsa, *xitlashibdi* degan so‘zni qo‘llashadi. Quyida bunga misol keltiramiz;

— Ular tayyor, prokuror ozgina kavlashtirsin, birdan ro‘para qilsak, xitlashadi. Kecha sho‘pirni iziga tushishdi . Sho‘pir bugun Uchariqdan kelsa, tappa bosishadi. U og‘zidan gullaydi. Hammasini pishitib qo‘yanman. (2-kitob,110-b)

Uyushgan to‘da vakili Kesakpolvon tomonidan aytilgan *xitlashadi, tappa bosishadi, og‘zidan gullaydi, pishitib qo‘yanman* kabi so‘zlar to‘daning o‘zlari uchun tushunarli bo‘lgan nutqiga xosdir.

— Sharif qurug‘idan tortayotgan emish.(2-kitob,110-b)

Asardan olingan bu parchadagi *qurug'idan tortmoq* nasha chekmoq ma'nosida qo'llangan, shuningdek bu so'z ignaga o'rganib qolmoq, doriga o'rganmoq kabi shakllarda ham ishlatiladi.

Buyuk yozuvchi Tohir Malikning detektiv janrga mansub "Shaytanat" romanida jinoyatchilar olamining sir- asrorlari haqida so'z bo'ldi. Shunday ekan, ular o'zgarlar uchun tushunarsiz, o'zlari uchun tushunarli bo'lgan jargonlardan foydalanadi. Asarda jinoyat olamidagi voqealar fonida asosiy e'tibor asar qahramonlarining ruhiy dunyosini tahlil etishga qaratilgan. Romanda biz e'tibor qaratgan asosiy jihat, jinoyatchilar qo'llaydigan jargonlar bo'ldi. Rus tilshunoslari Boduen de Kurtene, V.M. Popov va ba'zi chet el tilshunoslarining izlanishlari natijasida yaratilgan o'g'rilar, firibgarlar va qamoqxona tilining kichik lug'atlaridan foydalanildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh. Usmanova., N. Bekmuxamedova., G. Iskandarova. Sotsiolingvistika. O'quv qo'llanma. - Toshkent: 2014 16-17-betlar.
2. Узбек тилининг изоҳли луғати. - Москва: Русский язык. 1981
3. T. Malik. Shaytanat. 5-jildlik, 1-jild. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.
4. T. Malik. Shaytanat. 5-jildlik, 2-jild. - Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.
5. М. Грачев, А. Гуров, В. Рябинин. Словар уголовного жаргона. 1991

FIZIKA O‘QITISHDA KOMPYUTER YORDAMIDA YANGI YONDASHUVLAR

Jurakulov Sanjar Zafarjon o‘g‘li

Osiyo xalqaro universiteti

„Umumtexnika fanlar” kafedrası o‘qituvchisi

E-mail: juraqulovsanjarzafarjonugli@oxu.uz

ANNOTATSIYA

Tez rivojlanayotgan fan va texnika, ta’lim va kadrlar tayyorlash sohasida yangi asbob-uskunalar, jihozlar va jihozlardan foydalanish imkonini berdi. Bular orasida kompyuterlar eng ko‘zga ko‘ringanidir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ushbu yangi texnologiya o‘quvchilar e’tiborini jalb qilish, o‘rganishni osonlashtirish va motivatsiyasini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Biroq, sohada yetarlicha dasturlar mavjud emasligi sababli, mamlakatimizda ushbu texnologik imkoniyatlarni qo‘llashda katta bo‘shliq mavjud.[1] Ushbu tadqiqotda ushbu bo‘shliqni to‘ldirishga hissa qo‘shish va o‘z ichiga olgan yangi o‘quv dasturini eksperimental qo‘llab-quvvatlash maqsadida o‘rta maktab darajasida zamonaviy fizika fanlari; Yangi ishlab chiqilgan kompyuter muhitida Interfaol ekran tajribasi kiritildi. Ushbu dasturlar mavhum mavzularni konkretlashtirish va zamonaviy fizikaga kirishda ularni yanada tushunarli qilish uchun katta hissa qo‘shadi deb hisoblash mumkin.

Kalit so‘zlar: *Kompyuter yordamida ta’lim, Interfaol ekranli tajribalar, fizika ta’limi.*

Kirish: O‘rta maktabda qo‘llanilayotgan o‘qitish usullarini ko‘rib chiqsak, “o‘qituvchiga yo‘naltirilgan”, “qora doska” ta’limning hamon ustunlik qilayotganini ko‘ramiz. Bu usul odatda o‘qituvchi tomonidan boshqariladigan va boshqaradigan "bir tomonlama" o‘rganish uslubidir.[2] Biroq, ta’limning umumiy maqsadlaridan biri

o'quvchilarga "nimani va qanday o'rganishni" o'rgatishdir. Boshqacha qilib aytganda, bu "qanday o'rganishni o'rgatish". Chunki bizning davrimiz "bir umr o'rganishni" talab qiladi. Ta'lim hayotimizdan keyin biznes muhitiga kirganimizda ham, bilimlarimizni yangilash va yangilarini qo'shish tobora muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim texnologiyalarining ta'limdagi o'rni: Kerresga ko'ra; O'qituvchi nuqtai nazaridan ushbu texnologik imkoniyatlarning ba'zi funktsiyalarini quyidagicha sanab o'tish mumkin:

- Sinfda ma'lumotni taqdim etishda o'qituvchini qo'llab-quvvatlash
- An'anaviy ko'rgazmali usul bilan o'qitiladigan kurslarda muvaffaqiyatni oshirish uchun kurslarga tayyorgarlikda foydalanish.
- Muammoni hal qilishni qo'llab-quvvatlash va axborotning doimiyligini oshirish.

Bundan tashqari, qo'llanilayotgan texnologiyalar nafaqat yangi ma'lumotlarni o'rgatish jarayonini qo'llab-quvvatlash, balki o'quvchilar e'tiborini darsga jalb qilish, o'qitiladigan fanlarga qiziqish va ishtiyoqini oshirish uchun ham mos uslubdir. Shunday qilib, darslar turli xil qiziqish va qobiliyatlarga ega bo'lgan talabalarni o'ziga jalb qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ta'lim va o'qitishda texnologiyalardan foydalanish tubdan o'rganishni tez va osonlashtiradi.[3] Masalan, Germaniyada 1998 yilda Bertelsmann jamg'armasi ko'magida o'tkazilgan tadqiqotda quyidagi xulosalarga erishildi:

- Darslarning 90 foizi ta'lim texnologiyasini qo'llash bilan yanada jonli o'tmoqda
- 80% ta'lim texnologiyalari yordamida darslar qiziqarliroq o'tishini ta'kidladi
- 59% ta'lim texnologiyalari yordamida kurslar samaraliroq bo'lganini ta'kidladi.

Amalga oshirish orqali o'rganish Kompyuter ta'limi bo'yicha; O'rganilayotgan predmet va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir kompyuter foydalanuvchiga (talabaga) ta'lim jarayonida aralashish va o'quv jarayoniga yo'naltirish imkoniyatini berish orqali erishiladi. Issingning fikriga ko'ra, kompyuter va o'quvchi o'rtasida quyidagi shartlar bajarilgandagina o'zaro ta'sir bo'lishi mumkin:[4]

- O'quvchi birinchi navbatda ijodkor bo'lishi kerak. Shunday qilib, u o'rganishi kerak bo'lgan tarkibni tartibga solishi va uni mustaqil ravishda yaratishi mumkin.
- Kompyuter dasturi dinamik bo'lishi va o'quvchining harakatlariga javob bera olishi kerak.
- Ta'lim jarayonida o'quvchi o'z bilimini nazorat qilishi kerak.
- Dasturdan foydalanishda kerak bo'lganda dastur o'quvchiga yo'l-yo'riq ko'rsatishi kerak.[5]

Interfaol ekran tajribalari (IED): Interaktiv ekran tajribalari (IED) birinchi marta 1997 yilda Germaniyaning Berlin universitetida Kirshteyn va Rass tomonidan ishlab chiqilgan "Tirik fizika kitobi" loyihasi doirasida ko'p sonli talabalar ishtirokidagi xizmat kurslarida (Muhandislar uchun fizika) qo'llanilgan.[6] Ushbu tajribalarda interaktivlik (o'zaro ta'sir); Bunga foydalanuvchiga dastur tomonidan kompyuter ekranida bajariladigan tajribaga aralashish imkoniyatini berish orqali erishiladi. Videofilmlarda bo'lgani kabi, IED da ekranda paydo bo'ladigan tasvirlar "haqiqiy". Ya'ni, simulyatsiya dasturlaridagi kabi oldindan tayyorlangan va moslashtirilgan grafik va tasvirlar o'rniga; IEDlar raqamli kamera yordamida tajribaning har bir bosqichini suratga olish va ularni kompyuter muhitida birlashtirishdan iborat.

Xulosa : Ta'lim va ta'lim sohasida texnologik asbob va jihozlar sifatida tez-tez qo'llaniladigan kompyuter dasturlarining eng muhim xususiyatlari har qanday joyda ko'p vaqt talab qilmasdan osongina qo'llanilishi mumkin. Dasturlar CD yoki floppi disklarga yozilganligi sababli, ularni maktabda sinfda ham, uyda ham tinchroq muhitda bajarish va takrorlash mumkin. Shu tariqa o'quv muhitining maktabdan tashqarida tarqalishi yanada ortib bormoqda.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Jurakulov, S. Z. (2023). NUCLEAR ENERGY. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(10), 514-518.
2. Oghly, J. S. Z. (2023). PHYSICO-CHEMICAL PROPERTIES OF POLYMER COMPOSITES. *American Journal of Applied Science and Technology*, 3(10), 25-33.
3. Oghly, J. S. Z. (2023). THE RELATIONSHIP OF PHYSICS AND ART IN ARISTOTLE'S SYSTEM. *International Journal of Pedagogics*, 3(11), 67-73.
4. Oghly, J. S. Z. (2023). BASIC PHILOSOPHICAL AND METHODOLOGICAL IDEAS IN THE EVOLUTION OF PHYSICAL SCIENCES. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 233-241.
5. ugli Jurakulov, S. Z. (2023). FIZIKA TA'LIMI MUVAFFAQIYATLI OLIISH UCHUN STRATEGIYALAR. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(14), 46-48.
6. Oghly, J. S. Z. (2023). A Japanese approach to in-service training and professional development of science and physics teachers in Japan. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 167-173.
7. Oghly, J. S. Z. (2023). STRATEGIES FOR SUCCESSFUL LEARNING IN PHYSICS. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(9), 312-318.

**YOSH BASKETBOLCHILARDA RAQIBNI YENGIB O‘TISHDA
CHALG‘ITUVCHI FINTLARNI QO‘LLAB RAQIBNI YENGIB
O‘TISH TEZLIGINI O‘RGANISH**

Ganiyeva Fatima Vaxabovna

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Voleybol, basketbol
nazariyasi va uslubiyati kafedrasida dotsenti

ANNOTATSIYA

Tanlangan mavzuda basketbol bo‘yicha o‘tkazilayotgan mashg‘ulotlarda to‘pni o‘ng va chap tomonga urib yurish davomida turli chalgituvchi fintlarni qo‘llash texnikasi va ijro etish tezligi ko‘nikmalariga o‘rgatish hamda, fintlarni ham ikki tomonlama ishlata olish qobiliyatini shakllantirish mashqlarini muntazam qo‘llashga bag‘ishlangan.

***Kalit so‘zlar:** basketbol, sportchi, psixofiziologik, koordinatsion, modellashtirilgan.*

**ИЗУЧЕНИЕ СКОРОСТИ ПРЕОДОЛЕНИЯ СОПЕРНИКА У МОЛОДЫХ
БАСКЕТБОЛИСТОВ, С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ОТВЛЕКАЮЩИЕ
ФИНТЫ ПРИ ПРЕОДОЛЕНИИ СОПЕРНИКА**

Кафедра теории и методики волейбола, баскетбола Узбекистан, г. Чирчик,
улица спортивная 19 Узбекский Государственный
Университет физической культуры и спорта

АННОТАЦИЯ

Обучение технике и скорости выполнения различных отвлекающих финтов при ведении мяча вправо и влево в баскетбольных занятиях по выбранной теме, а также умению применять финты двусторонне, посвящено регулярному использованию формирующих упражнений.

Ключевые слова: баскетбол, спортсмен, психофизиологический, координация, смоделированный

STUDYING THE SPEED OF OVERCOMING AN OPPONENT IN YOUNG BASKETBALL PLAYERS, USING DISTRACTING FEINTS WHEN OVERCOMING AN OPPONENT

Department of Theory and Methods of Volleyball, Basketball Uzbekistan, Chirchik city, sports street 19 Uzbek State University of Physical Culture and Sports
fatima018662@gmail.com

ANNOTATION

Teaching the technique and speed of performing various distracting feints when dribbling the ball to the right and left in basketball lessons on a chosen topic, as well as the ability to use feints bilaterally, is devoted to the regular use of formative exercises.

Key words: basketball, sportsman, psychophysiological, coordination simulations

Ma'lumki, har bir sport turiga xos texnik – taktik ko'nikmalar o'ziga xos koordinatsion elementlar, turli variantli harakat usullari va ularni ijro etish bilan bog'liq sir – asrorlardan iboratdir. Shunday ekan, ularga o'rgatish va texnik – taktik mahoratni shakllantirish samaradorligi trenerning kasbiy tayyorgarligiga bog'liqdir. Bunday

noyob va murakkab harakat elementlari basketbolda ham keng qo'llaniladi. Ularni mahorat bilan ijro etish – demak raqib chalg'itib o'tildi, binobarin ochkoga yo'l ochildi deb hisoblash mumkin. Basketbolga xos bunday harakat elementlaridan biri – bu to'pni urib yugurish vaqtida qarshilik ko'rsatayotgan raqibga nisbatan qo'llaniladigan chalg'ituvchi fintlaridir. Masalan, to'pni raqibga qarshi urib harakatlanishda o'ngaqay basketbolchi faqat chap tomonga keskin qadam tashlab chalg'ituvchi fint qo'llaydi va o'z harakatini o'ng tomondan, ya'ni raqibning chap tomonidan davom ettiriladi. Bunday taktik fintni bilgan raqib to'p bilan harakatlanayotgan o'yinchiga nisbatan osongina to'siq qo'yib, uning yo'lini to'sib qo'yishi mumkin. Lekin bunday chalg'ituvchi fintlarga qanchalik erta yoshdan boshlab o'rgatilsa va ular muntazam shakllantirib borilsa ushbu fintlarni ijro etish mahorati shunchalik yuksak darajada sayqal topadi. Zamonaviy basketbolda to'pni urib zich qarshilik ko'rsatayotgan raqibni engib o'tish imkoniyati faqat turli chalg'ituvchi fintlarni mohirona qo'llay olish qobiliyatiga bog'liqdir.

Tadqiqotning maqsadi – yosh basketbolchilarda to'pni urib, harakatlanish davomida chalg'ituvchi fintlarni qo'llab raqibni engib o'tish soni va tezligini o'rganishga bag'ishlangan.

Tadqiqotning vazifalari – tanlangan mavzu bo'yicha tadqiqotning ilmiy-amaliy g'oyasini isbotlash, yosh basketbolchilarda to'lipsiz va to'p bilan fint qilishni rivojlantirish samaradorligini tadqiqot asosida o'rganish muhim deb topilib, o'rganish yuzasidan o'tkazilgan pedagogik tajriba quyidagi vazifalar asosida amalga oshiriladi:

1. Modellashtirilgan test mashqi yordamida to'pni fintsiz va fint bilan urib yugurish tezligini o'rganish.

2. To'psiz va to'p bilan fint qilish tezligini o'zgarishi tadqiqot asosida o'rganish rivojlantirishda texnikasi bir tartibda shakllantiruvchi ixtisoslashtirilgan mashqlar majmuasini ishlab chiqish va uni samaradorligini pedagogik tajriba asosida aniqlash.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslub-testlar va ulardan foydalanish tartibi.

1. 2x14 m.ga to'pni fintsiz urib yugurish tezligini aniqlash testi.
2. 2x14 m.ga to'pni fint qo'llab urib yugurish tezligini aniqlash testi.

Yosh basketbolchilarda fint bilan to'pni urib yugurishga ijro etish tezligining o'zgarishi

T/r	Test mashqlari	O'rgatishdan oldin	O'rgatishdan so'ng	Ko'rsatkichlar farqi
1.	2x14 m.ga to'pni urib fishkani chap tomoniga fint qo'llab yugurish	11,5	7,3	4,2
2.	2x14 m.ga to'pni urib fintsiz fishkani o'ng tomoniga fint qo'llab yugurish.	13,7	10,2	3,5

Jadvalda qayd etilgan tadqiqot natijalaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, basketbolchilarda olib borilayotgan mashg'ulotlarda to'pni urib yugurish davomida fishkalar oldida chap tomonga qadam qo'yib fint ishlatish va o'ng tomonga o'ng qo'l bilan to'pni urib yugurish, shu harakatni aks tomonga bajarib harakatlanish texnikasiga taqdimiy hamda to'p bilan ijro etiladigan mashqlar yordamida muntazam o'rgatib borish natijasida shu harakatlar tezligi jadal o'sib borishi mumkin ekan. Jumladan, 2x14 m.ga to'pni urib fishkani chap tomoniga fint qo'llab o'ng tomonga to'p bilan yugurish tezligi o'rgatish mashqlaridan avval (dastlabki ko'rsatkich) 11,5 sek.ga teng bo'lgan edi. O'rgatish va takomillashtirish mashqlarini muntazam qo'llash natijalari ushbu ko'rsatkich 7,3 sek.ni tashkil etdi. To'pni urib harakatlanish va chap tomonga fint ishlatish, so'ng to'pni to'pni o'ng qo'l bilan urib o'ng tomonga harakatlanish tezligining o'sish sur'ati (farqi) 4,2 sek.gacha qisqardi.

2x14 m.ga to'pni urib fishkaning o'ng tomoniga qadam qo'yib fint ishlatish va to'pni chap qo'li bilan chap tomon bo'ylab harakatlanish tezligi avvalgi test natijasiga

qaraganda ancha sust bo'ldi va 13,7 sek.ni tashkil etdi. Mashg'ulotlar davomida yuqorida qayd etilgan chalg'ituvchi harakat fintiga maxsus mashqlar yordamida o'rgatish jarayoni yakunida ushbu harakat va chalg'ituvchi fintni bajarish tezligi 10,2 sek.gacha qisqardi. Demak, o'rgatish keyin natijasida to'pni urib yugurish va fintni bajarish tezligining o'sganlik farqi 3,5 sek.ni tashkil etdi.

Xulosa va takliflar

1.To'pni urib yugurish davomida chap va o'ng tomonlar bo'ylab fint qo'llash texnikasi hamda tezligini o'rgatishdan keyin mashg'ulotlar davomida shakllantirish shu harakatlarni ijro etish tezligini jadal o'sishiga olib keldi. Ana shu natijalar o'rganilayotgan usullar va fintlarni erta yoshlikdan boshlab muntazam shakllantirib borish zarurligiga e'tibor qaratadi.

2.Tadqiqot natijalari, qo'llanilgan uslub – testlar va ishlab chiqilgan o'rgatuvchi mashqlar basketbolchilar tayyorlash amliyotiga joriy etilishi taklif qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Ganiyeva F.V., Qdirova M.A., Xusanova D.T. Madaminov T. Basketbolda to'pni urib yugurish texnikasi va tezligini vaziyatli mashqlar asosida shakllantirish uslubiyati. // Ilmiy-uslubiy tavsiyanoma. T.: 2015. - 50b.

2. Ганиева Ф.В. Динамика функциональных параметров при обосновании игрового времени в соревновательной деятельности баскетболистов при воспитании выносливости. Fan-sportga ilmiy-nazariy jurnali. 2023 yil, 1-soni. 16-19 b.

3. Ганиева Ф.В. Турли тайёргарлик боскичларида шуғулланаётган ёш баскетболчиларда тўпни уриб югуриш тезлиги ва техникасини шаклланиш динамикаси. Sportda ilmiy tadqiqotlar jurnali. 2023 yil, 1-soni. 20-23 b.

5. Денисова У.Д., Ганиева Ф.В., Машарипова Р.Ю., Basketbol nazariyasi va uslubiyati. // o‘quv qo‘llanma// Kaleon Press, T. 2021, -178b.
6. Каримов Б.З., Теория и методика баскетбола.// Учебник для высших учебных заведений. Т: 2019. – 585 с.
7. Miradilov B.M. Basketbol nazariyasi va uslubiyati. // Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. T.: 2021. – 453 b.
8. Miradilov B.M., Karimov B.Z., Umbetova M.A. Sport pedagogic mahoratini oshirish (basketbol). // O‘quv qo‘llanma. T.: 2017. – 268 b.
9. M.A. Umbetova. SPORT TURLARINI O‘RGATISH METODIKASI METODIKASI (BASKETBOL) //- 2023. - B. 231
10. Pulatov A.A., Ganieva F.V., Miradilov B.M., Xusanova D.T., Pulatov F.A. Basketbol nazariyasi va uslubiyati. // Darslik. T.: 2017. – 351 b.
11. Ganiyeva F.V. Sport pedagogic mahoratni oshirish (Basketboi) [O‘quv qo‘llanma] O‘zDJTSU– Chirchiq: 2023y. 300 bet.

JIZZAX VILOYATIDAGI QURG‘OQCHILIKKA CHIDAMLI DARAXT VA BUTA TURLARI

Ихромов Улуг‘бек

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti,
Toshkent filiali O‘rmonchilik 22-32 guruh 2-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Jizzax viloyatining turli iqlimiga moslashgan daraxt va buta turlari bilan tanishish, ular haqida ma‘lumot olish, tarqalish hususiyati va nima uchun kamayib ketayotgani haqida qisqacha tanishamiz.

***Kalit so‘zlar:** Kserofitlar , atmosfera sirkulatsiyasi, Introduksiya, kontinental iqlim, ixota, tuproq, Aylant yoki Xitoy shumtoli, Sinuvchan tol, suv resurslari.*

DROUGHT-RESISTANT TREE AND SHRUB SPECIES IN THE JIZZAKH REGION

ABSTRACT

In this article we will briefly get acquainted with the types of trees and shrubs adapted to various climatic conditions of the Jizzakh region, learn about them, about the peculiarities of distribution and why they are declining.

ЗАСУХОУСТОЙЧИВЫЕ ПОРОДЫ ДЕРЕВЬЕВ И КУСТАРНИКОВ В ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ

АННОТАЦИЯ

В этой статье мы кратко познакомимся с видами деревьев и кустарников, адаптированных к различным климатическим условиям Джизакской области, узнаем о них, об особенностях распространения и о том, почему они сокращаются.

O'zbekiston Respublikasining maydoni 78.8% ini tekisliklar, 21.2% ini tog'liklar va tog' oldi hududlarni o'z ichiga oladi. Xududining deyarli 5/4 qismi yarimcho'l va cho'lliklarni, qolgan qismi janubiy-sharqiy va sharqiy xududlarda baland tog'liklardan iborat. O'zbekistonda kontinental iqlimning paydo bo'lishida uning geografik o'rni, quyosh radiatsiyasi hamda atmosfera sirkulatsiyasi ta'sir etadi. Asosan uzoq qurg'oqchilik, issiq yoz, yomg'irli bahor va noustivor qishni tashkil etadi. Mamlakat hududiga turli havo oqimlarining kirib kelishi uchun juda oson hudud hisoblanadi. Shimol, shimoliy-g'arb va g'arbiy tarafdin atlantika va arktika havo oqimlari kirib keladi. Hozirgi vaqtga kelib yoz faslida havo harorati 30 °C dan yuqoriga qarab ko'tarilib bormoqda. 2023-yil Yanvar oyining o'rtacha havo harorati shimolda -8 °C gacha, janubda esa 0-4°C gacha yetdi. Bu o'z navbatida mamlakatning yashilliga turlicha taqsir qilmoqda.

Respublikada issiq hududlaridan biri bu Jizzax viloyati hisoblanadi. Ushbu hudud relyefi tog'lik, qir va tekisliklardan iborat. Shuning uchun ham ob-havosi, tabiati hamda ekollogiyasi ham bir biridan sezilarli darajada farq qiladi.

Tog'li hududlari asosan Baxmal, Zomin va Forish hududlari hisoblanadi. Tog'yon bag'irlarida yovvoyi jiyda, archa, bodom, yong'oq, na'matak kabilar o'sadi.

Jizzax viloyatining asosiy qismini tekistliklar va qir-adirliklar bo'lganligi uchun Qishloq xo'jaligida keng miqyosda foydalanadi. To'qayzorlar o'zlashtirilib ekin ekish uchun tayyorlangan. Iqlim issiqlika moil bo'lganligi uchun **kserofit** o'simliklar ham o'sadi. Qishloq xo'jalik ekinlarini tashqi muhitdan himoya qilish va aholi yashash joylari, qishloq, shahar, mahallalarni ko'kalamzorlashtirishda, shu hududda o'suvchi va shunga o'xshash hudud, mintaqa va joydan manzarali daraxt va butalar introduksiya qilingan yoki iqlimlashtirilgan. Ixotazorlar va daraxt plantatsiyalari yaratilgan.

Tekistlik va qir-adirliklarda tabiiy holda o'suvchi jiyda, chilonjiyda, tol, tut, sho'ra, saksovul, yulg'un, aylant kabi darxtilarga parvarish talab qilmaydi. Pista daraxti ham o'sishga moilligi bor lekin unga ko'proq parvarish talab qilinadi.

Markaziy Osiyoning issiq va quruq iqlimiga eman, shum, zarang, terak, oq akatsiya, katalpa, kariya, magnoliya, lola daraxti, jo'ka, qarag'ay, qoraqarag'ay, archa,

sarv, shamshod va boshqa ko‘plab daraxt va butalami iqlimlashtirishda F.N. Rusanov, T.I. Slavkina, N.F. Rusanov, A.U. Usmonov, G.P. Ozolin, V.P. Fimkinning xizmatlari beqiyosdir.

Qishloq xo‘jaligi ekinlari dala maydonlari chegaralarini ixotazorlashda Tut daraxtidan keng miqyosda foydalaniladi. **Tut (Morus) turkumining** bir nechta turi iqlimga moslasha olgan va madaniylashgan. Bularga misol qilib **Oq tut (Morus alba L.)** va **Qora tut (Moras nigra L.)**. Daraxtining ildizi, tanasi, shoxlarining baquvvatligi kuchli shamollarga ham dosh bera oladi. Tanasini tez tiklash qobiliyatiga ega. Ko‘chatlik davrida yerga yaxshi o‘rnashishi uning keyinchalik ekologik (iqlim, shamol, qurg‘oqchilikka) va biotik (hayvonlar va turli zararkunanda hashoratlar) omillarga qarshi turishida katta ro‘l o‘ynadi.

Oq tut (Morus alba L.). Ushbu tut turi tabiiy ravishda Markaziy Osiyo, keng tarqalgan va madaniylashtirilgan. Balandligi 15 metrgacha bo‘lib, tana diametri 80 sm gacha yetadi. 250 yilgacha yashashi aniqlangan..Oq tut barglari asosan pilla qurtini boqishda ozuqa manbai bo‘lib xizmat qiladi, o‘rmon melioratsiyasida ham foydalaniladi. Har yili hosil beradi, bitta daraxtdan 20—50 kg meva terish mumkin.

Qora tut (Moras nigra L.). Qora tut oq tutga nisbatan kam tarqalgan, asosan Eron, Markaziy Osiyo va Kavkazda o‘stiriladi. Uning barglari ipak qurti uchun kam ishlatiladi. Daraxti 10—15 m balandlikda bo‘lib, morfologik belgilariga ko‘ra oq tutda deyarli farq qilmaydi. Uning

mevalari oq tut mevalariga nisbatan qadirlanadi va oziq-ovqat sanoatida va vinochilikda bo‘yovchi sifatida ishlatiladi. Qora tutning xalq seleksiyasi mahsuli bo‘lgan shotut navi aholi tomonidan ko‘plab ekiladi. Asosan qalamchadan qimmatli navlari payvandlash yo‘li bilan ko‘paytiriladi.

Aylant yoki Xitoy shumtoli

O‘zbekistonda uning bitta vakili — yuksak aylant yoki Xitoy shumtoli (**Ailanthus altissima(MiU)-Swingle.**) introduksiya qilingan. Aylant daraxti yoshligida qish sovuqlariga chidash bersa, qurib qolmasa, u yirik daraxtga aylanadi, 20—30 m balandlikkacha o‘sadi. Sovuqqa chidamsiz, Markaziy Osiyoda keng tarqalgan,

qurg'oqchilikka, tutun-gazga chidamli. Mashina haraklanadigan yo'llarga trassa shaklida ekilmoqda. O'rmon melioratsiyasida jarliklar, qumlar, eroziyaga uchragan yerlarni mustahkamlashda katta samara beradi.

Tol (Salix) turkumi

Ushbu daraxt turkimi Jizzax hududida ko'p tarqalgan. Ular daryo va ko'l bo'ylaridagi nam yerlarda o'sadi. Namga talabchan bo'lganligi uchun uni ko'proq kanallar, zovurlar, ariq va doimiy suv yoki namlik ko'p joylarga ekiladi. Buning sababi quyosh issiqlikni oqibatida parlanayotgan suv bug'ini tol barglari o'zida ishlab qoladi va yana yer ostiga yuboradi. Tuproq tanlamaydi. Unimdor tuproqlarda juda yaxshi o'sadi. Xalq xo'jaligida daraxt shoxlaridan savat to'qishda, o'rtacha kattalikda shoxlardan dexqonchilik ish anjomlariga tayanch qism sifatida foydalaniladi Markaziy Osiyo florasida 70 turi bo'lib, ulardan 40 tasi mahalliy floraga oid, qolgan 30 tasi introduksiya qilingan turlardir.

Jizzax viloyatida ko'p tarqalgan turlari:

Sinuvchan tol (Salix fragilis L.),

Echkitol (Salix caprea L.)

Qorator (Salix australior L.)

Majnuntol (Salix babylonica L.)

Bulardan tashqari, turkumning **jung'or toli (Salix songorica Rgl.), turon toli (Salix tnratica Nas.), Tyan-Shan toli (Salix tianschanica Rgl.)** kabi turlaridan o'rmonchilikda va ko'kalamzorlashtirishda foydalaniladi.

JIYDADOSHLAR (ELAEAGNACEAE) OILASI

Bu oilaning vakillari daraxt yoki buta o'simliklaridir. Bular qurg'oqchilikka va tuproqning sho'rtobligiga chidamli bo'lib, o'rmonzorlarni melioratsiya qilishda ahamiyatga ega. Bir joyda to'p-to'p o'sishi yavvoyi hayvonlarga boshpana bolib ham hizmat qiladi. Oila tarkibidagi turkumlardan jiyda va chakanda juda keng tarqalgan bo'lib, xalq xo'jaligida katta ahamiyatga ega. Tanasi baquvvat, qattiq va tikon bilan qoplangan. **Non jiyda** aholi tomonidan ko'plab o'stiriladi, aynisa uning sho'rangan va

sizot suvlari tuproq yuzasiga yaqin joylarda o'suvchi ekotiplari o'rmonmelioratsiyasi uchun katta ahamiyatga egadir. Ko'kalamzorlashtirishda keng foydalaniladi, Non daraxti qurg'oqchilikka chidamsiz lekin sovuqqa chidamli. Daryo qirg'oqlarini, jarliklarni mustahkamlashda keng foydalaniladi.

Saksovul (Haloxylon) turkumi

Saksovul cho'l o'simligidir. Uning o'sish areali cho'llar va yarim cho'llar chegarasi bilan bog'liq. Qora yoki sho'rxok saksovuli (Haloxylon aphyllum) Taqir cho'llarda, sariq-sho'rxoq tuproqlarda, sho'rlangan qumli va bo'z tuproqlarda o'sadi. Tuproqni himoyalash, ko'chma qumlarni to'xtatish, cho'l yaylovlari saqlash kabi cho'ldagi muhim vazifalarni bajaradi. Bundan tashqari, qorasaksovulzorlar katta xo'jalik ahamiyatiga ega. Chunki Markaziy Osiyo mamlakatlari aholisi uchun ular mayda qurilish materiali hamda asosiy yonilg'ich manbasi bo'lib xizmat qiladi.

Sho'ra (Salsola) turkumi

Sho'ralar qumliklar va qurg'oqchil chollarda sho'rlangan tuproqlarda o'sadi. Qumni mustahkamlashda sho'ralardan foydalaniladi, shuningdek, sho'ralar cho'l va yarim cho'llar hududida ko'kalam-zorlashtirish ishlarida hamda ixotazorlar yaratishda va yashil massivlar hosil qilishda foydalaniladi.

Yulg'un (Tamarix) turkumi

Yulg'un yoki jing'il nomi bilan mashhur daraxt yoki buta turkumi. Ushbu tur Jizzax viloyatining tekistliklarida keng tarqalgan. Xalq xo'jaligida katta ahamiyatga ega. Cho'l hududlarida joylashgan asosiy massivlarning tuprog'ini muhofazalashda meliorativ ahamiyatiga ega. Bundan tashqari, terini oshlash sanoatida yulg'un bebaho va arzon xomashyodir. Po'stlog'ida, ko'k massasida bir yillik poyalari, barglari tarkibida 5—10 % oshlovchi moddalar mavjud. Mahalliy aholi azaldan terini oshlashda undan foydalangan. Xuddi boshqa cho'l o'simliklari singari, yulg'unlar ham issiqqa, qurg'oqchilikka chidamli, tuproqqa talabchan emas, ko'plari sho'rga chidamli. Tez o'suvchi, asal to'plovchi o'simlik. O'zining manzaraliligi tufayli

ko'kalamzorlashtirish ishlarida, ayniqsa, cho'l va yarim cho'llarning sho'rlangan tuproqlarida ekish uchun foydalanish mumkin.

Pista (Pistacia) turkumi

Turkum tarkibida 8 ta tur bo'lib, ular o'rta Yer dengizi mamlakatlarida, Xitoyda va Meksikada tarqalgan. MDH florasida 2 turi uchraydi. Xandonpista kichik daraxt bolib, Markaziy Osiyoda turkumning bitta xandonpista (**Pistacia vera L**) turi o'sadi. Uning novdalari yashil kulrang, shoxlari kulrang, jigarrang mayda yasmiqchalari bor. Uning barglari uch bo'lakli, po'sti qalin, har ikkala tomoni tiniq yashil, yaltiroq, bo'yi 20 sm gacha, bargchalari tuxumsimon, uchi to'mtoq, tubi notekis, bandsiz boiib, navbat bilan joylashadi. Mevasi juda mazali, iste'mol qilinadi va oziq-ovqat sanoatida foydalaniladi. Mag'zi tarkibida 60—70 % moy bor. Tanasidan smola olinadi. Tanasi, bargi va mevalarida xushbo'y efir moyi boiadi. Bargida tannid moddasi bor. Xandonpista Markaziy Osiyodagi tog' qiyaliklarida yowoyi holda o'sadi. U Markaziy Osiyoda, Kavkazortida va Qrimda ko'p ekiladi. Qurg'oqchilikka va issiqqa juda chidamli. Ko'p sug'orilsa yoki erda nam haddan tashqari ko'p bo "Isa, qurib qoladi. Xandonpista asosan urug'dan ko'paytiriladi.

Jizzax viloyati hududida daraxt va buta turlari juda ko'p, tepada keltirilgan daraxt turlari shu hududdagi asosiylari hisoblanib kelinadi. Daraxt va buta turlarining kamayib ketishiga abiotik va ekologik omillardan ko'ra ko'proq antropogen omillarning ta'siri kuchliroq.

Aholi yashash hududlarining ko'plari gaz bilan taminlanmaganligi oqibatida daraxt va yog'och maxsulotlaridan foydalaniladi. Tut daraxtini barglari pillachilikda ishlatilganligi uchun ommaviy ravishda shoxlari qirqiladi. Boshqa daraxtlardan issiqlik manbai sifatida ishlatiladi. Chorva hayvonlari boqilishi oqibatida yangi chiqqan novda va nihollar nobud boladi. Qishloq xo'jaligi ekinlari ko'p suv talab qilganligi uchun ochiq yerdagi daraxt va butalar suv yetib bormaydi. Nanga talabchan daraxtlar quruq va issiq ta'sirida unda transpiratsiya kuchayadi, ammo transpiratsiya uchun sarflanadigan zarur suvni darhol tuproqdan ololmaydi, natijada daraxt qurib qolishi mumkin. Shuning uchun ham daraxtlar kamayib ketmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Arifxanov K.T., Slavkina T.I. Dendrologiya Uzbekistana. tom.XI, Izd-vo FAN UzSSR. Tashkent. 1981.
2. Rusanov F.N. Dendrologiya Uzbekistana tom II. Izd-vo FAN UzSSR. Tashkent, 1968.
3. Rusanov F.N., Slavkina T.I. Dendrologiya Uzbekistana tom IV. Izd-vo FAN UzSSR. Tashkent 1972.
4. Rusanov F.N. Derevyia i kustamiki Botanicheskogo sada Akademii nauk UzSSR. Chast 1. Izd-vo AN UzSSR. Tashkent. 1955.
5. Xolyavko V.S. Globa-Mixaylenko D.A. Dendrologiya i osnovi zelenogo stroitelstva . Moskva, VO Agropromizdat, 1988.
6. Xanazarov A.A. Kayimov A.K. Lesnie resursi Uzbekistana. Tashkent, 1993.
7. Qayimov A.Q. Dendrologiya —T; «Ilm-ziyo».2007.
8. Yaskina L. V. Dendrologiya. —T; « O ‘qituvchi» 1980.
9. Google.com. Wikipediya 2023 y

HAZRAT NAVOIYNING ONA TILIMIZNING BUGUNGI KAMOLOTIGA QO'SHGAN KATTA HISSASI HAQIDA

Ochilova Fayyoza Mansurovna

Qashqadaryo viloyati Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistri

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ona tilimizning bugungi kamolotida hazrat Navoiyning katta hissa qo'shgani va ul zotning birgina "Muhokamat-ul lug'atayn" asari turkiy tilning boshqa tillardan afzal xususiyatlarini ko'rsatishda muhim manba sanalishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

***Kalit so'zlar:** adabiyot, masnaviy, dostonnavislik, timsol, ma'naviy, xamsanavislik, an'ana va o'ziga xoslik, badiiy mahorat, obraz, monografiya.*

Umuman olganda til haqidagi fanning shakllanishi, odatda, XIX asrning boshiga to'g'ri kelib, tilshunoslikning eng asosiy, tub muammosi, jumladan so'z turkumi va gap bo'lagi, tilning tabiati, til belgisining ma'noda aloqadorligi, mantiqiy, gramatik va boshqa hodisa munosabati va hatto, til, lison va nutq munosabati, tilning sistemaviy xarakteri, sistema ekanligi, yaxlit strukturadan iborat ekanligi kichik sistemaning katta sistema tarkibiga kirishi, ular o'rtasida juda zich aloqa mavjudligi, bu aloqasiz, strukururasiz yaxlitlikning, yani tilning o'zi bo'lmasligi hamda unga yondashuvda ham doimo qadimdan boshlab sistema sifatida yo'l tutilganligi, shuningdek, tilning kelib chiqishi qamrab olinadigan bo'lsa, tilshunoslik fanining shakllanishi uzoq tarixga borib taqaladi.

Ma'lumki, Navoiyga qadar siyosat, ilm-fan va adabiyotda arab va fors tillarining mavqei turkiy tilga nisbatan ancha yuqori edi. Shu sababli turkiy qavmga mansub kishilar davlat ishlarini, olimlar ilmiy asarlarini, shoirlar she'rlarini asosan forsiyda bitishgan. Hatto Navoiy ham ilk ijod namunalarini shu tilda bitgan. Ammo, keyinchalik

asosiy e'tiborni ona tilda ijod qilishga qaratgan buyuk mutafakkir tilimizning g'oyatda ulug' va betakror ekanligini anglab yetadi.

Navoiy dunyodagi tillarning xilma-xilligini hayrat ila bayon etadi."Yetti iqlimning har birida qancha-qancha mamlakat, har bir mamlakatda qancha shahru qishloq, har bir dashtda, har bir orol yoki sohillarda qancha-qancha qabilalar istiqomat qiladi. Har bir toifa o'z tili va lahjasida so'zlaydi".

Shundan so'ng muallif arab, fors, hind va turk tillarini eng qadimiy, asl tillardan ekanini ta'kidlab, har birining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib o'tadi. Boshqa tillarning ildizi shu uch tilga borib taqalishini aytadi.

Navoiy tilga olgan bu gipoteza bugungi antropologiya va irqshunoslik fanlari nuqtai nazariga ham qaysidir ma'noda mos keladi. Ilmiy nazariyaga ko'ra, dunyo aholisining 90 foizdan ortiqrog'ini yevropeoid, mongoloid va negroid irqi vakillari tashkil qiladi.

Navoiy e'tiborini bevosita turkiy va forsiy tillar muhokamasiga qaratadi. Garchi o'sha davrda forsiy til mavqey jihatdan ustun bo'lsada turkiy tilning imkoniyatlari ancha keng bo'lgan. Navoiy bunga juda ko'p misollar keltiradi. Jumladan, ulug' mutafakkir turkiy tildagi yuzta fe'lni keltirib o'tadiki, ularni forsiyda ifodalash imkoni bo'lmagan. Bu fe'llarning aksariyati zamonaviy tilimizda keng ishlatiladi. Masalan: quruqshamoq, ixranmoq, aylanmoq, ovunmoq, qiynamoq, qo'zg'almoq, sovrulmoq, chayqalmoq, qizg'anmoq, siylanmoq, tanlamoq, qimirlamoq, sig'inmoq, yalinmoq, indamoq, sipqormoq, chidamoq, tuzmoq, qadamoq, bichmoq, ko'ndirmoq va hokazo. Forsiy tilda bu fe'llar ma'nosini ifodalash uchun bir qancha so'z yoki arabiy lafzlardan foydalanish talab etiladi.

Shuningdek, Navoiy birgina yig'lamoq fe'lining tilimizda bir qancha shakli (siqtamoq, yig'lamsinmoq, ingramoq, singarmoq, o'kirmoq) borligini aytib, ularning biriga she'riy misollar keltiradi. Shoir qovoq (ko'z va qosh orasi), chaqmoq (chaqin), ildirim (momoqaldiraq), meng (xol) singari so'zlarni ham forsiy muqobili yo'qligini aytadi. Shuningdek, turkiy tilda qarindoshlar nomi ham xilma-xil. Masalan, turkiy

tildagi og‘a va ini (aka-uka) Forschada “birodar”, egachi va singil (opa-singil) “hohar” deyiladi.

Navoiy tildagi bu tafovutlar haqida so‘z yuritarkan, o‘z tili qolib o‘zga tilni afzal ko‘ruvchi shoiru fozillarga qarata “turk tilining jomiiyati muncha daloil bila sobit bo‘ldi, kerak erdikim bu xalq orasidin paydo bo‘lg‘on tab’ ahli salohiyat va tab’larni o‘z tillari turg‘och, o‘zga til bilan zohir qilmasa erdi va ishga buyurmasalar erdi” deya ularga dashnom bergan bo‘ladi. U forsiy tilda ijod qilgan Abulqosim Firdavsiy, Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, Sa‘diy Sheroziy singari ulug‘ shoirlar ijodidan bahramand bo‘lgani, buyuk fors-tojik shoiri Abdurahmon Jomiy bilan yaqin munosabatda bo‘lganini iftixor bilan qayd etadi.

Shoirning bu risolani bitishdan maqsadi bir tilni ikkinchisidan ustun qo‘yish emasdi. Aksincha, fors va arab tillari soyasida qolib, hatto turkiy qavmga mansub shoiru hukmdorlar tomonidan ham yetarlicha e‘zozlanmagan, kamsitilgan ona tilining qadru qimmatini yuksaltirmoq edi va bunga musharraf bo‘ladi.

ADABIYOTDA NAVOIY ASARLARINING FORS – TOJIK ADABIYOTIGA TA’SIRI

XVI asr fors-tojik adabiyotining ko‘zga ko‘ringan namoyandasi Badriddin Hiloliy Sharq masnaviychiligi, dostonnavisligi tarixida o‘ziga xos o‘ringa ega. Uning “Shohu gado”, “Sifot ul-oshiqin” va “Layli va Majnun” dostonlarida fors-tojik mumtoz adabiyotining masnaviy ustalari qatorida Alisher Navoiy dostonlarining ham muayyan darajada ta’sirini kuzatish mumkin. Xususan, shoirning “Layli va Majnun” dostonidagi Layli timsoli aynan Alisher Navoiy yaratgan obrazga yaqin turishi Hiloliy ijodini monografik planda tadqiq etgan K. Ayniy ishlarida ham qayd etiladi. Olimning ta’kidlashicha, salaflar ijodidagi talqindan farqli o‘laroq, Hiloliy talqinida Layli o‘z muhabbatini shunchalik qattiq himoya qiladiki, unga uylanmoqchi bo‘lgan yigit niyatidan voz kechishga majbur bo‘ladi. Ushbu epizodni qiyosiy tahlil etish asnosida olim quyidagicha xulosa chiqargan[1]: (Butimsol faqat Navoiyning Laylisigagina nisbatan yaqindir. Zero u (Navoiy yaratgan Layli timsoli) Ibn Salomga nasib etmaslik uchun o‘ziga xanjar urishga ham tayyor. Navoiy va Hiloliy qahramonlarini

yaqinlashtiradigan xususiyat o‘z yoriga bo‘lgan ishq va sadoqati yo‘lida qahramonlik ko‘rsatishga tayyor ekanligidir). Demak, Badriddin Hiloliyning “Layli va Majnun” dostoni muqaddimasida shu mavzuda qalam tebratgan ijodkorlar qatorida Alisher Navoiy va uning dostoni alohida tilga olinmagan bo‘lsa-da, Layli obrazining xarakter chizgilarini yaratishda muallif aynan Alisher Navoiy yaratgan obraz va uning tabiatidan ijodiy ta’sirlanganligini qayd etish mumkin.

XVI asr fors-tojik adabiyotida xamsanavislik an’anasining taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan ijodkorlardan biri safaviylar sulolasi vakili Shoh Tahmasp davrida yashab, Abdiy va Navidiy taxalluslari bilan ijod etgan forsiyzabosh shoir Abdibek Sheroziydir. O‘z ijodiy faoliyati davomida uchta “Xamsa”, aniqrog‘i, uchta beshlik yaratgan shoir Abdiyning dastlabki “Xamsa”si Nizomiy Ganjaviy va Amir Xusrav Dehlaviy asos solgan adabiy an’ana qonuniyatlariga muvofiq ijod etilgan.

Ganjaga jonbaxsh she’r (nazm) jo‘natdim, bu bilan go‘yo Nizomiyni qayta tiriltirdim. Bunday jozibador va yangicha so‘zlar bilan Dehlida Xusrav (Dehlaviy) maqtoviga sazovor bo‘lsam (ajab emas). Bu (asarlar) ma’nolar gulzori bo‘lgan Xurosonga ham tuhfadir. Shoirning deyarli barcha dostonlarida Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, ba’zi asarlarida Abdulloh Hotifiy kabi xamsanavis shoirlarga yuksak ehtirom ko‘rsatiladi. Shu bilan birga, uning asarlarida Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodiga ham murojaat etilganligi e’tiborga loyiq holatdir.

Abdiyning «Mazhar ul-asror» («Sirlarning namoyon bo‘lishi») dostoni o‘n beshinchi maqoloti ilm va johillik haqida bo‘lib, unga Shayboniyxonning Xurosonni qo‘lga kiritganligi haqidagi hikoyat ilova qilinadi.

Hikoyatda aytilishicha, Muhammad Shayboniyxon Xuroson va Hirotni qo‘lga kiritib, Sulton Husayn taxtiga o‘tirgach, Hirotning eng mohir hunar egalari, olimlari, shoirlari asarlarini olib kelishni buyurdi. Xattotlar sultoni Sulton Ali Mashhadiyning kitobatlari, Kamoliddin Behzodning suratlari hamda Alisher Navoiyning asarlarini unga olib kelishadi. Biroq u dunyo madaniyatining durdona asarlariga qalam tekkizish, isloh qilishga kirishadi:

She'ri Navoiy chu rasidi ba go'sh,
Xosti az ta'nazijonashxuro'sh.
Kardaashisloh dar on anjuman,
Soxtaashchunsuxanixeshtan.

Navoiyning she'rlari qulog'iga yetgach, ta'nadan joniga iztirob soldi. U anjumanda, majlisda (Navoiy she'rlarini) isloh qilishga kirishdi. Bu bilan u (Navoiy she'rlarini) o'zinikiga o'xshatib qo'ydi. Hikoyatda Alisher Navoiyning turkiy she'riyatda tengsiz ijodkor ekanligi e'tirof etiladi. Bu borada, ayniqsa, shoirning xulosasi e'tiborga molik:

Zog' chu dar bog'baroradxuro'sh,
Nag'maibulbulnatavon kard go'sh.
Zog' bog'da qichqirishni boshlasa,
bulbul navosini eshita olmaydi.

Navoiy she'riyatining bulbul navosiga qiyoslanishi bejiz emas, albatta. Mazkur e'tirof ikki jihatdan ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, bu misralar Alisher Navoiy iste'dodi, ijodiy mahorati nafaqat turkiy zabon, balki forsiy zabon xalqlar orasida ham XVI asrdayoq katta shuhrat taratganligiga yana bir dalil. Ikkinchidan, Abdibek Sheroziy Alisher Navoiy ijodi bilan yaxshi tanish bo'lib, o'z «Xamsa»sini yaratishda Nizomiy, Amir Xusrav, Jomiy, Hotifiy asarlari singari Alisher Navoiy «Xamsa»sidan ham ma'lum darajada ilhomlangan.

ADABIYOTLAR

1. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. 8-tom. – T.: Fan, 1991. 47-bet.
2. Ragimov A. Jizn i tvorchestva Abdi-beka SHirazi // Abdi-bek SHirazi. Madjnun i Layli. – M.: Nauka, 2016. S.4.
3. Ayni K. BadriddinXiloli. – Stalinabad:Tadjikgosizdat, 2017, str. 138.
4. Tursunov U. O'rinboyev B. "Alisher Navoiy va o'zbek adabiy tili tarixi" Samarqand.

BOG‘LIQSIZ HOLDA BUTSTREP BAHOLASH

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi

Solijonova Mavluda

ANNOTATSIYA

Bu maqolada bog‘liqsiz holda butstrep baholashni statistik masalalarni tasodifiy jarayonga asoslanishda, bog‘liqlik turini aniqlash va statistikaning taqsimotini hisoblash masalasiga yordam beradi

Kalit so‘zlar: *Butstrep metodi, butstrep baholash, tasodifiy jarayon, tanlanma, statistika, bog‘liqsiz bir xil taqsimlangan tasodifiy jarayon.*

Butstrep bu kompyuter intensiv metod bo‘lib, u keng turdagi statistik masalalarni tasodifiy jarayonga asoslanib hosil qilingan qat‘iy strukturaviy farazlarsiz yechishga imkon beradi. 1979-yilda Efron tomonidan tanishtirilgandan beri butstrep o‘zining amaliy tatbiqlarini ko‘plab statistik masalalarda topdi. Ko‘plab statistik masalalarda, masalan bog‘liqlik turini aniqlashda $T_n = T_n(X_1, \dots, X_n)$ statistikaning taqsimotini hisoblash masalasiga duch kelinadi. Agar ma‘lumotlar chiziqsiz bo‘lsa masala juda ham murakkab tus oladi. Shuning uchun parametrsiz hollarda blok butstrep metodi keng qo‘llaniladi.

Efronning bog‘liqsiz bir xil taqsimlangan metodining formulasini kiritishdan boshlaymiz. X_1, X_2, \dots umumiy F taqsimotga ega bo‘lgan bog‘liqsiz bir xil taqsimlangan tasodifiy miqdorlar ketma-ketligi bo‘lsin. Faraz qilaylik, berilgan ma‘lumotlar $X_n = (X_1, \dots, X_n)$ hosil qilsin va $T_n = t_n(X_n, F)$ biz qiziqtirayotgan tasodifiy miqdorlar bo‘lsin. Unutmash kerakki, T_n olingan ma‘lumotlar va noma‘lum taqsimot F ga bog‘liq. Oddiy misol sifatida normallashtirilgan T_n tanlanma o‘rta qiymati $T_n \equiv n^{1/2}(\bar{X}_n - \mu)/\sigma$ studentlashtirilgan taqsimotga keltirish mumkin: $T_n \equiv n^{1/2}(\bar{X}_n - \mu)/s_n$ bu yerda, $\bar{X}_n = n^{-1} \sum_{i=1}^n X_i$,

$$s_n^2 = n^{-1} \sum_{i=1}^n (X_i - \bar{X}_n)^2, \mu = E(X_1) \text{ va } \sigma^2 = D(X_1)$$

G_n T_n tasodifiy miqdorning tanlanma taqsimoti bo'lsin. Maqsad T_n ning noma'lum taqsimotini yoki ayrim umumiy xaraktrestikalari misol uchun T_n ning standart chetlanishini aniq aproksimatsiyalashdir. Efronning[2] butsrep metodi F model haqida hech bir tasavvursiz bu masalalarga yondashishga effektiv yo'lini ta'minlaydi. X_n berilgan, X_n ning m tasini qayta joylashtirish orqali

$X_n^* = \{X_1^*, \dots, X_m^*\}$ oddiy tasodifiy tanlanmani hosil qilamiz. Shuningdek, X_n , $\{X_1^*, \dots, X_m^*\}$, $P_*(X_1^* = X_i) = \frac{1}{n}$, $1 \leq i \leq n$ ega shart ostidagi bog'liqsiz bir xil taqsimlangan tasodifiy miqdorlar. Bu yerda P_* X_n ning shartli ehtimolligi. Shuning uchun X_i^* larning umumiy taqsimoti empirik taqsimoti ko'rinishida berilgan $F_n = n^{-1} \sum_{i=1}^n \delta_{X_i}$ bo'lib, bu yerda δ_y y ga birlik massa qo'yilgan ehtimollik o'lchovi. Odatda qayta tanlash $m = n$ ko'rinishida amalga oshiriladi. Shunga qaramasdan bir nechta boshqa usullar mavjud, bularga misol Athreya(1987), Arkones va Giyn(1989,1991), Bikkel, Gudze va Zvet(1997), Fukuchi(1994) va boshqalar.

Keyingi o'rinda biz butsrep versiyasi T_n ning $T_{m,n}^*$ ni ko'ramiz, qaysiki X_n ni X_m^* F ni F_n bilan almashtirib hosil qilingan

$$T_{m,n}^* = t_m(X_n^*; F_n)$$

X_n da berilgan $\hat{G}_{m,n}$ $T_{m,n}^*$ ning shartli taqsimoti deb faraz qilamiz. U holda butstrep prinsipi $\hat{G}_{m,n}$ T_n ning noma'lum tanlanma taqsimot G_n ning bahosi deb ta'kidlaydi. Agar biz G_n o'rniga T_n ayni bir tanlanma taqsimot funksionali bo'lgan $\varphi(G_n)$ baholamoqchi bo'lsak, xuddi G_n uchun $\hat{G}_{m,n}$ butstrep bahosi bo'lganidek, $\varphi(G_n)$ uchun $\varphi(\hat{G}_{m,n})$ butstrep bahosi bo'ladi. Misol uchun agar

$\varphi(G_n) = D(T_n) = \int x^2 dG_n(x) - (\int x dG_n(x))^2$, butstrepning $D(T_n)$ uchun $\varphi(\hat{G}_{m,n}) = D(T_{m,n}^* | X_n) = \int x^2 d\hat{G}_{m,n}(x) - (\int x d\hat{G}_{m,n}(x))^2$ bo'ladi. X_n miqdorlar kuzatib bo'lingach X_i^* larning umumiy taqsimoti F_n ma'lum bo'ladi va shuning uchun $\hat{G}_{m,n}$ shartli taqsimot va butstrep bahosi bo'lgan $\varphi(\hat{G}_{m,n})$ ni berilgan ma'lumotlar asosida topish (kamida nazariy jihatdan mumkin). Amaliyotda shunga qaramasdan

aynan $\hat{G}_{m,n}$ ni topish judayam qiyin masala hattoki o'rtamiyona tanlanmalar uchun. Bu X_m^* mumkin bo'lgan aniq qiymatlar soni $O(n^m)$, $n \rightarrow \infty$ va $m \rightarrow \infty$ da bog'liqsiz bir xil taqsimlangan butstrep shartida judayam tez o'sganligi uchun. Natijada $T_{m,n}^*$ ning shartli taqsimoti Monto-Karlning situmulyatsiyalari orqali yanayam aproksimatsiyalandi. Asosiy g'oyani ko'rsatish yana eng oddiy misol bo'lgan $T_n = \sqrt{m}(\bar{X}_n - \mu)/\sigma$ markazlashtirilgan va normalashgan o'rtachani ko'rib chiqamiz. Bu yerda $\mu = EX_1$, birinchi darajali parametr. Yuqorida berilgan tasniflashga ko'ra T_n ning $T_{m,n}^*$ butstrep versiyasi quyidagicha:

$$T_{m,n}^* = \sqrt{m}(\bar{X}_m^* - E_*X_1^*)/(D_*(X_1^*))^{1/2}$$

berilgan X_n da butstrep o'rtachasi $\bar{X}_m^* = m^{-1} \sum_{i=1}^m X_i^*$ E_* va D_* X_1^*, \dots, X_m^* larning shartli matematik kutilmasi va shartli dispersiyasi bo'ladi. Har qanday $k \geq 1$ lar uchun

$$E_*(X_1^*)^k = \int x^k dF_n(x) = n^{-1} \sum_{i=1}^n X_i^k \quad (1)$$

o'rinli. Boshqacha aytganda, bu ko'rsatadiki, $E_*(X_1^*) = \bar{X}_n$ va

$D_*(X_1^*) \equiv s_n^2 = n^{-1} \sum_{i=1}^n (X_i - \bar{X}_n)^2$. Shuning uchun biz mos ravishda \bar{X}_n ni \bar{X}_n^* va μ va σ^2 ni $E_*(X_1^*)$ va $D_*(X_1^*)$ bilan almashtirish orqali $T_{m,n}^*$ ni ta'riflaymiz. Shuning uchun T_n ning butstrep versiyasi

$$T_{m,n}^* = \sqrt{m}(\bar{X}_m^* - \bar{X}_n)/s_n \quad (2)$$

bo'ladi. Agar misol uchun bizni biror $\alpha \in (0,1)$ uchun T_n ning α - kvantili bo'lgan $\varphi_\alpha(G_n)$ ni baholash qiziqтира $\varphi_\alpha(G_n)$ ning butstrep bahosi $\varphi_\alpha(\hat{G}_n)$ $T_{m,n}^*$ ning shartli taqsimotining α - kvantili bo'ladi. Yuqorida ta'kidlanganidek $\hat{G}_{m,n}$ ni aniqlash unchalik ham oson masala emas, shunga qaramasdan $EX_1^2 < \infty$ da va $m = n$ da bizda quyidagi natija mavjud. Eslatib o'tamiz d.m bilan deyarli muqarrar yaqinlashishni va $\Phi(\cdot)$ bilan R da standart normal taqsimot funksiyasini belgilaymiz.

1 – Teorema: Agar X_1, X_2, \dots dispersiyasi $\sigma^2 = D(X_1) \in (0, \infty)$ bo'lgan bog'liqsiz bir xil taqsimlangan miqdorlar bo'lsin. U holda

$$\sup_x |P_*(T_{n,n}^* \leq x) - \Phi(x/\sigma)| = o(1) \quad n \rightarrow \infty \text{ da d.m} \quad (3)$$

Markaziy Limit Teoremadan (MLT) ma'lumki, $T_n \sim N(0,1)$ taqsimotga ham taqsimot bo'yicha intiladi. Shuning uchun quyidagi

$$\hat{\Delta}_n \equiv \sup_x |\hat{G}_{n,n}(x) - G_n(x)| = \sup_x |P_*(T_{n,n}^* \leq x) - P(T_n \leq x)| = o(1) \quad (4)$$

$n \rightarrow \infty$ da d.m (4) o'rinli, ya'ni bog'liqsiz bir xil taqsimlangan butstrep metodi orqali hosil qilingan $T_{n,n}^*$ ning shartli taqsimoti $\hat{G}_{n,n}$, T_n ning tanlanma taqsimoti G_n uchun asosli aproksimatsiya bo'ladi. Ba'zi qo'shimcha shartlar ostida Singh(1981) $\hat{\Delta}_n = O(n^{-1}(\log \log n)^{1/2})$ $n \rightarrow \infty$ da d.m ligini ko'rsatgan. Shu sababli, $P(T_n \leq \cdot)$ uchun butstrep aproksimatsiyasi klassik normal aproksimatsiyadan ancha aniqroq. Butstrep aproksimatsiyasining o'xshash optimallik xossalari ko'plab muhim masalalar uchun shakllantirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Efron, B. 'Bootstrap methods: Another look at the jackknife', The Annals of Statistics 7, 1-26.1979
2. Hall, P. The Bootstrap and Edgeworth Expansion, Springer-Verlag, New York, 1992
3. Lahiri, S.N Resampling Methods for Dependent Data. Springer Series in Statistics, 2003

XOLISTIK YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFLARDA TARBIYA FANLARINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Rahmatullayeva Sabohat Sa'dullayevna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

rakhmatullayevasabohat@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tabiiy fanlarni o'qitish metodologiyasi haqida ma'lumot berilgan. Bundan tashqari tabiiy fanlarni xolistik yondashuv asosida o'qitish uchun nimalar qilish kerak degan savollarga javob berilgan. Maqolada tavsifiy metoddan foydalanilgan.

***Kalit so'zlar:** Xolistik yondashuv, biosfera, hikoya usuli, ta'riflash, xarakterlash, tabiat*

Bugungi kunda har qanday fanni metodologiyasi o'sib- rivojlanib ketmoqda. Metodlar zamonaviy texnologiyalarga mos tarzda o'zgaradi. Shunday ekan tabiiy fanlarni o'qitishda ham yangi metodlarni ishlab chiqish ahamiyatlidir.

Tabiiy fanlar biosferaga oid ilmiy tadqiqotdir. Tabiatshunoslar odatda tajriba o'rniga kuzatuvdan foydalanishadi. Tabiiy fanlar hayot shakllarining kelib chiqishi va yashash tarzi haqidagi ma'lumotlarni to'playdi va tizimga soladi. U biologiyaning ost sohasi bo'lib, botanika, zoologiya bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir va paleontologiya, ekologiya, biokimyó, geologiya va iqlimshunoslik kabi fanlar bilan aloqadadir.¹

Tabiiy fanlar - tabiat haqidagi fanlar tizimi, tabiiy fanlar majmui. Tabiatning inson ongidagi aksi bo'lgan tabiiy fanlar jamiyatning rivojlanishi bilan mukammallashadi.

¹ Nuriddinova M.I. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi. T.: «Cho'lpon» -2005 y

Tabiiy fanlarning maqsadi - tabiat hodisalarining mohiyatini aniqlash, tabiat qonunlarini bilish hamda ulardan amalda foydalanish imkoniyatlarini ochib berish. Tabiiy fanlar, asosan, fundamental fanlar bo'lgan mexanika, fizika, kimyo va biologiyadan tashkil topgan. Astronomiya, geologiya, tibbiyot fanlari, qishloq xo'jaligi. fanlari, ekologiya kabi ko'plab bilim tarmoqlari shu fundamental fanlardan kelib chiqqan. Metodlar bilan metodik uslublarni farqlash muhimdir. Metodik uslub- bu metodning unsurlaridan biri, uning tarkibiy qismidir (ko'rgazma vositalarni, kinofilm fragmentlarini, diafilm, diapozitiv ko'rsatish, doskada sxema rasmlardan foydalanish, tajribalarni namoyish qilish, maktab o'quv-tajriba uchastkasidagi amaliy ishlar vaqtida turli xil faoliyat ko'rsatish va hokazo).

Metod va metodik uslublar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, bir-biriga o'tishi mumkin. Masalan, o'quvchilarning turli xil tajribalari metod hisoblanadi, lekin o'qituvchi hikoya qilayotgan paytda tajribani namoyish qilinishi metodik uslubdir. Hikoya davomida o'qituvchining diafilm namoyish qilishi metodik uslubdir. Metod va uslublar kompleks holda qo'llaniladi, ular bir-birini to'ldiradi, tabiatshoslik tushunchalarini to'g'ri shakllantirishga xizmat qiladi.¹

Metodlarni qo'llashda o'qituvchi o'quvchilarga asosan so'zlar vositasida, zarurat bo'lsa mavzu mazmuniga mos ko'rgazmali qurollarni ko'rsatish bilan bilim beradi. Bu paytda o'quvchilarning yangi bilim olishlari uchun asosiy manba so'zlar (og'zaki nutq) hisoblanadi. Og'zaki metodning asosiy turlaridan biri - hikoyadir. Hikoya o'qituvchining jonli so'zidir. U kitob o'qish, jism va hodisalarni namoyish qilish, texnika vositalardan foydalanish, badiiy adabiyotlar o'qish va boshqalar bilan uyg'unlashadi. Hikoyada izchilikka qat'iy hikoya qilinadi. Tabiiy fanlar mashg'ulotlarida hikoyaning aytib berish yoki ta'riflash, xarakterlash, tushuntirish, muhokama qilish kabi turlari qo'llaniladi. Aytib berish - unda konkret fakt, voqea, jarayon harakatlar haqida gapirib beriladi. Hikoya shohid (sayyoh, yosh tabiatshunos, sayyohatchi, kashfiyotlar ishtirokchisi) nomidan olib boriladi. Ta'riflash - borliq jismlar va hodisalarning (foydali qazilmalar, o'simliklar, hayvonot dunyosi, biror

¹ Grigoryants, A.G. va b. «Tabiatshunoslik» 4-sinf uchun darslik. T.:«Cho'lpon» 2002 y

tabiiy zona iqlimi xususiyatlarini) izchil bayon qilishda qo'llaniladi. Xarakterlash - ta'riflashning bir turidir, u jism yoki hodisaning belgi va xususiyatlarini sanab o'tishdan iborat (tog', daryo va tabiiy zonalar harakteristikasi). Tushuntirish - unda yangi tushunchalar, atamalar, ma'nosi ochib beriladi, sabab, oqibat bog'lanishi, u yoki bu narsaning mantiqiy tabiati (nima uchun tundrada uzun tun va qisqa kun bo'ladi, nima uchun kun va tun, yil fasllari almashib turadi) ochib beriladi. Undan barcha darslarda foydalaniladi, u muhokama qilish bilan uyg'unlashadi.

Muhokama qilish - bayon qilish asosida bo'lib, unda o'quvchilarni xulosaga olib keluvchi qoida va isbotlarning izchil rivojlanishi bilan bog'liq. Hikoyaning bu turida o'rganilayotgan hodisani (masalan, tirik mavjudotning o'zgarishiga iqlimning ta'siri, suv, metallning xususiyatlari) tahlil qilish zarurati tug'ilganda foydalaniladi.¹

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, tabiiy fanlarni o'qitishda og'zaki tavsiflash metodidan foydalanish yaxshi samara beradi. Tabiiy fanlarni o'qitishda o'qituvchilar xolistik yondashuv asosida ya'ni yaxlit o'qitishga e'tibor berish va metodologiyasini rivojlantirish zarur. Buning uchun tabiiy fanlarga oid ma'lumotlarni ma'lum mezonlar asosida tasif qilish lozim. So'ng shunga moslab, metodlar tayyorlash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Isayeva Nodira Rixsibayevna. Boshlang 'ich sinflarda tabiiy fanlarni og'zaki o'qitish. Maqola.
2. Nuriddinova M.I. Tabiiy fanlarni o'qitish metodikasi. T.: «Cho'lpon» -2005 y.
3. Grigoryants, A.G. va b. «Tabiiy fanlar» 4-sinf uchun darslik. T.:«Cho'lpon» 2002 y

¹ Isayeva Nodira Rixsibayevna. Boshlang 'ich sinflarda tabiiy fanlarni og'zaki o'qitish. Maqola

**TALABALARNI PEDAGOGIK TA'LIM JARAYONIDA KONGRUENTLIK
SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH
(BOSHLANG'ICH TA'LIM IXTISOSLIGI MISOLIDA)**

Kamalova Dilobar Tairovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Kamalovadilobar@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada talabalarda kongruentlik sifatlarini rivojlantirishning ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari kongruentlik sifatining o'zi ham tushuntirilgan. Maqolada tavsifiy metoddan foydalanilgan. Maqola oxirida xulosa mavjud.

***Kalit so'zlar:** kongruentlik, motivatsiya, "real Men", "ideal Men tushunchalari, depressiya, o'ziga ishonmaslik.*

Kongruentlik¹-bu muvofiqlik. Bundan shuni anglatadiki, o'qituvchi qanday bo'lsa, aynan shunday bo'lishi lozim. Bundan tashqari, u boshqa odamlarga bo'lgan munosabatini bilishi kerak. Bu shuningdek, uning haqiqiy his-tuyg'ularini qabul qilishini anglatadi. Bunday xislatli o'qituvchi, u o'z shogirdlari bilan muloqotda ochiq bo'ladi. U o'ziga yoqadigan narsaga qoyil qolishi va uni qiziqitirmaydigan mavzularda suhbatlar paytida zerikishi mumkin. U g'azablangan va sovuq yoki aksincha, sezgir yoki hamdard bo'lishi mumkin. U o'z his-tuyg'ularini o'zinikidek qabul qilganligi sababli, ularni o'quvchilariga bog'lash yoki ular ham xuddi

¹ Kongruent (lot. songruens) -mutanosib, mos keladigan, mos keluvchi (Chet el so'zlari lug'ati. M., Rus. yaz., 1989) yoki "Muvofiqlik" atamasi Karl Rojers tomonidan inson hayotidagi "ideal men", "Men" va "tajriba" o'rtasidagi muvofiqlikni tavsiflash uchun kiritilgan

shunday his qilishlarini talab qilishlari shart emas. U tirik inson, dastur talablarining shaxssiz timsoli yoki bilimlarni uzatish uchun uzatish kamari emas. U hamkasblari bilan bir xil sharoitda ishlab, talabalar bilan muloqot qilishda, ular uchun muvaffaqiyat va rivojlanish vaziyatini yaratishda o'zining mavjudligidan maqsadni aniq tushunadi. Bunday o'qituvchilar o'z kasbida uyg'unlik namunasi. ¹

Kongruentlikni boshlang'ich sinf o'qituvchilarida qanday rivojlantirish kerak va bu xususiyat nima uchun kerak, degan savollarga javob berish maqolaning dolzarb vazifasidir. Boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ko'tarinki ruh, motivatsiya nihoyatda kerak hisoblanadi. Chunki pedagog o'qituvchilar ongida model, qolip hisoblanib, ulardan namuna olishadi. Bu sifatlarning poydevori ham kichik sinflarda yaratiladi.

Kongruentlik quyi darajasi sifatida o'ziga ishonmaslik, depressiya holatlarini sanashimiz mumkin. Bu holatlar o'qituvchining miyasida bloklar ketirib chiqaradi va kelajakda kasb tanlashda va hayotiy murakkab vaziyatlarda o'qituvchi qiynaladi.

Shaxs to'kisligini "real Men" va "ideal Men" o'rtasidagi kongruentlik ta'minlaydi. Ular o'rtasidagi nisbat birga yaqin bo'lishi lozim. Shaxs to'kisligi – o'z imkoniyatlarini to'liq ro'yobga chiqarayotgan shaxsning asosiy sifatidir. Tarbiya mazmuni va shaxs korreksiyasi uning to'kisligini ta'minlashdan iborat. To'kis shaxs, [birinchidan](#), o'z yaqinlari va do'stlari bilan qoniqarli psixologik aloqa o'rnatishga harakat qiladi, o'z his-tuyg'ularini oshkor qilishdan qo'rqmaydi, sir-sinoatlari hisobda mavjud [emasligi bilan ajralib turadi](#); ikkinchidan, aslida kim ekanini (real Men) va kim bo'lishini (ideal Men) [aniq biladi](#); uchinchidan, yangi tajribani o'zlashtirishga maksimal darajada ochiq va hayotni "ayni damda va shu yerda" qanday bo'lsa [shundayligicha qabul qiladi](#); to'rtinchidan, barcha odamzotga shartsiz ijobiy munosabatni namoyon qiladi; beshinchidan [boshqa odamlarni tushunishga](#), o'zida empatiyani rivojlantirishga, olamga o'zga odam nigohi bilan qarashga intiladi.

Har bir o'qituvchi talaba yoshlar bilan ishlaganda ularga qobiliyatsiz, omadsiz, baxtsiz insonlar bo'lmasligi balki shunchaki, o'z qobiliyatlarini namoyon qila

¹BO'LAJAKO'QITUVCHILARDAKONGRUENTLIKSIFATLARINISHAKLLANTIRISHNINGILMIYAHAMIYAT
ISardor Mirzayev.Maqola.

olmaydigan, o'zini «omadsiz» deb hisoblaydigan, baxtni his qila olmaydiganlar bo'lishini anglashga yordamlashish lozim. Hamma ham orzu qila olishi mumkin, lekin, uni maqsadga aylantira olish har bir insonning o'ziga va o'zligini anglashga bog'liqligi, eng muhimi har bir inson qanday yashash kerakligini bilishi emas balki, nima uchun yashayotganligini anglashdir. Ma'naviy yo'lda birinchi qadam o'ziga ishonch hosil qilishdir. Ishonch bo'lmasa, hech narsaga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ularga ichki ovozga ishonch, muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqmaslik, o'zini-o'zi tinglay olish, o'ziga ishonish, boshqalar bilan raqobatlashmaslik kabi sifatlarni shakllantirish lozim.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, kongruentlik sifati o'qituvchi uchun nihoyatda muhim sifat hisoblanib, u o'quvchilarni o'ziga ishonchini, qiyin vaziyatlardan chiqib ketish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham bu sifatni rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Карякин Ю.В. КОНГРУЭНТНОСТЬ КАК ХАРАКТЕРИСТИКА УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА // Современные наукоемкие технологии. –2007. –No 3. –С. 36-37;

2. Карякин Ю.В. Сантьягская теория познания как фактор перестройки образования/ Фундаментальные исследования 2/2005, с. 110-112. Международный симпозиум, 2004. Потаи (Тайланд).

3. Карякин Ю.В. Высшее образование: XXI век. Учебный процесс как предмет науки/ Научное обеспечение системы повышения квалификации кадров: Межвузовский сборник научных трудов. -Вып. 8/ Под. ред. Д.Ф.Ильясова. - Челябинск: Изд-во «Образование», 2005. С. 191-209.

CHO'LPONNING "KECHA VA KUNDUZ" ROMANIDA MILLIY XARAKTER

Fayzullayeva Sevara Sayfullayevna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

"Boshlang'ich ta'lim" kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi obrazlar xarakteri, ularning dunyoqarashi tadqiq etiladi. Ijtimoiy muhitning qahramonlar ruhiyatiga ularning ichki kechinmalariga ta'siri yuzasidan so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: obraz, xarakter, ijtimoiy-psixologik roman, poetik vosita, roman dilogiya.

Har bir milliy adabiyotning zamirida qahramonlar xarakterining rang-bararangligi; ijobiy va salbiy jihatlari aks ettiriladi. Xarakter badiiy asardagi xususiy belgilari mukammal tasvirlangan va o'zida fe'l-atvor, ichki kechinma, xatti-harakatlarni mujassamlashtirgan muallifning asosiy konsepsiyasini ifodalagan inson obrazi.

XX asr birinchi choragi haqiqiy ma'noda o'zbek adabiyoti uchun taraqqiy etish, izlanish davri bo'ldi. Bu davrda ijod etgan barcha ijodkorlar ijodida adabiyotimiz rivojlanishi, yuksalishi shakl va mazmun jihatidan boyiganini guvohi bo'lamiz. Bu xususiyatlarning barchasi Cho'lpon ijodiga ham xosdir. Cho'lpon o'z ijodiy faoliyatida ham mumtoz adabiyotimiz davomchisi sifatida an'anaga sodiq qolganligini, ham jahon adabiyotiga xos poetik vositalarni o'zbek adabiyotida qo'llaganligini guvohi bo'lamiz. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani esa o'zbek adabiyotida birinchi roman dilogiya sifatida e'lon qilindi. Roman yaratilishida yozuvchining maqsadi milliy ruhni, hayotni badiiy talqin etishni, davr muhitini qahramonlar ruhiyati orqali ko'rsatishdan

iborat edi. Cho‘lponshunos olim Dilmurod Quronov “Kecha va kunduz” romani ustida yaratgan tadqiqotida quyidagi fikrlarni keltirgan edi: “Kecha va kunduz” o‘zbek nasridagi ilk ijtimoiy-psixologik roman sifatida dunyoga kelgan¹.

“Kecha va kunduz” romani xalqimizning og‘ir, qiyinchilik kunlaridan hikoya qiladi. Bu roman qahramonlari ruhiyatida, ularning xarakterida o‘z ifodasini topadi. Romandagi haqiqiy o‘zbek milliy xarakterini aks ettirgan obraz Zebi obrazidir. Zebinisa ismi jismiga monand maftun qiluvchi, o‘ziga rom etuvchi qiz. Zebi Razzoq so‘fidek ziqna, pastkash, o‘zining asl insoniylik mohiyatini unutgan kishining xonadonida tabiat in‘om etgan mo‘jiza kabidir. Roman boshlanishida yozuvchi peyzaj san‘ati orqali bahor tasvirining ifodalashi, tabiatdagi jonlanish, hayot va yashashga bo‘lgan ishtiyoq nafasi qiz ko‘nglidagi hislar bilan uyg‘unlik kasb etadi: “Zebi (Zebinisa)ning qish ichi siqilib, zanglab chiqqan ko‘ngli bahorning iliq hovuri bilan ochila tushgan, endi, ustiga poxol to‘shalgan aravada bo‘lsa ham, allaqaylarga – tola qirlarga chiqib yayrashni tusay boshlagan edi”². Yozuvchi Zebining kechinmalarini, his-tuyg‘ularini, istak-u intilishlarini, qalbining eng chuqur qatlamlaridagi tuyg‘ularini mahorat bilan tasvirlagan. Zebi o‘z istaklarini otasiga aytishda onasidan foydalanadi. Zebiga tabiat yosh-u qarini lol qoldira oladigan go‘zal ovozni in‘om etgan. Ammo u uyidan boshqa joyda kuylash huquqiga ega emas. U shunday otaning qizikim uning qo‘lida har qanday kuchli mayllarni ham parchalamoqqa, ko‘nglining har bir havas va tilagini ko‘ringan joyida bo‘g‘ib tashlamoqqa qodir. Chunki Zebi shunday qilishga o‘rganib qolgan. Zebi erki o‘z qo‘liga bo‘lmagan, o‘z xohish istaklariga qarshi bora oladigan o‘zbek ayoli timsoli.

Romanda asosiy bo‘magan, Zebi obrazi atrofida harakatlanayotgan Salti(Saltanat), Enaxon, uning onasi, kelinbibisi obrazlari xarakterida ham o‘zbek millatiga xos bo‘lgan xarakter jihatlarini ko‘rishimiz mumkin. Shahardan Saltilarni kelishini eshitgan Enaxon mehmonlarni qanday kutib olishni o‘ylab o‘zini qo‘yarga joy topa olmaydi. “Mehmon ko‘rki - dasturxon” deganlaridek Enaxon mehmonlarni

¹ Quronov D. Ruhiy dunyo tahlili. – Toshkent: Xazina, 1995. b-3.

² Cho‘lpon Kecha va kunduz. – Toshkent.: Akademnashr,2016. b-4.

risolagidek kutib olishni xohlaydi. Ammo bu yo'qsul oilaning daromadi arang kun kechirishga yetar edi. Shunday bo'lsa ham bu oila shahardan kelayotgan mehmonlarni yaxshi kutib olish uchun kengashib o'z bisotlaridagi borlarini o'rtaga qo'yadilar: - "O'ylab-o'ylab qo'limdan kelgani shu bo'ldiki, o'limligimga atalgan narsalardan bir ozroq ajratdim. Endi, Ena, sen ham bisotingda boridan bir-ikki narsa ajrat, kelin siz ham bir narsa qo'shing, ertalab bitta- yarimtani bozorga tushiraylik shularni sotib ulbul olib kelsin¹". Taklif barchaga ma'qul tushib rozi bo'ladilar. Cho'lpon o'zbek oilalaridagi bu kabi qadriyatlarni me'yoriga yetkazib tasvirlaganki, bu orqali o'qirman asar qahramonlari xarakteridagi milliy qadriyatlarga hurmat, insoniylik jihatlarini ham tezda ilg'ay oladi. O'lmasjon qizlarni shahardan olib kelganidan bir necha kundan so'ng ham qishloqdan keta olmaydi. Chunki u Zebining ovoziga nafaqat ovoziga balki o'ziga ham oshiq bo'lib qolgan edi. Ziyofatlarning birida u Zebining ovozini eshitish uchun Xolmatlarnikiga keladi:

– Zebinisaning ovozini aytaman Xolmat aka ... - dedi u, o'zi shu so'zni aytganidan keyin negadir bir oz qizara tushib yerga qaradi.

– Chakki emas! –dedi Xolmat. So'ngra so'radi: - Oti Zebinisami?

–Ha, Zebinisaxon!²

O'lmasjonning shu "xon" degan qo'shimchasi zamirida "mening Zebinisam degan ma'no bor edi.

Xulosa qilib aytganda, Cho'lpon har bir obraz xatti-harakatida, so'zida obrazlarning ijtimoiy-psixologik jihatdan tasvirlab berdi. Har bir obraz zamirida kitobxon o'zbek millatiga xos insonlar xarakterinin ilg'ay olishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Quronov D. Ruhiy dunyo tahlili. – Toshkent: Xazina, 1995.
2. Quronov D. Cho'lpon nasri poetikasi. – Toshkent: "Sharq", 2004.
3. Cho'lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent.: Akademnashr,2016.

¹ Cho'lpon Kecha va kunduz. – Toshkent.: Akademnashr,2016. b-33.

² Cho'lpon Kecha va kunduz. – Toshkent.: Akademnashr,2016. b-37.

KONSTITUTSIYADA DUNYOVIY DAVLAT TUSHUNCHASI VA UNING TAHLILI

Akmalov Hamid Akmalovich

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Yuridik fakulteti 3-bosqich talabasi

e-mail: hamidakmalov999@gmail.com

ANNOTATSIYA

Barchamizga ma'lum, joriy yilning 1-may sanasidan mamlakatimizda xalq referendumi asosida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya kuchga kirdi. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasiga kiritilgan o'zgartirishlardan kelib chiqqan holda dunyoviy davlat tushunchasi hamda uning tahliliga to'xtalib o'tilgan.

***Kalit so'zlar:** Konstitutsiya, demokratik tamoyillar, davlat hokimiyati, milliy qonunchilik, dunyoviy davlat, huquqiy davlat, referendum.*

O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat.

Davlatning “O'zbekiston Respublikasi” va “O'zbekiston” degan nomlari bir ma'noni anglatadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasi.

Yangilangan konstitutsiyamizning mazkur moddasida O'zbekiston davlatining siyosiy-huquqiy maqomiga suveren va demokratik davlat tushunchalaridan tashqari yangi uchta, ya'ni “huquqiy davlat”, “ijtimoiy davlat” va “dunyoviy davlat” tushunchalari qo'shimcha qilindi. Xo'sh, ushbu yangi qo'shimchalar qanday ma'noni

anglatadi? Biz sodda va oddiy tilda ushbu moddada belgilangan dunyoviy davlat tushunchasini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Dunyoviy davlat – davlat hokimiyati va boshqaruvdan din ajratilgan, boshqaruv diniy qoidalar bilan emas, balki qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadigan, qarorlar qabul qilishda diniy asoslarga tayanilmaydigan davlatdir. Shuningdek, hech qanday din va mafkura davlatning majburlov kuchi bilan o‘rnatilmasligini, ularning davlatdan ayri ekanligini tavsiflaydi. Shuni alohida ta’kidlash zarurki, dunyoviy davlatda din davlatdan va siyosatdan ajratilsada, jamiyatdan ajratilmaydi. Dunyoviy davlatda millati, tili, e’tiqodidan qat’i nazar, barcha fuqarolar teng va ular uchun bir xil sharoit yaratiladi. Din, diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan hamda davlat hokimiyatidan ajratilgan bo‘ladi. Davlat boshqaruvi diniy qoidalar bilan emas, balki Konstitutsiya va qonunchilik hujjatlari bilan tartibga solinadigan, qarorlar qabul qilishda diniy asoslar bosh mezon hisoblanmaydi [1].

Dunyoviy davlatda barcha din vakillari qonun oldida teng bo‘ladi. Bu tamoyil davlatni diniy qarashlardan ajratishni nazarda tutadi, ya’ni, dunyoviy davlatda din davlatdan va siyosatdan ajratilsada, jamiyatdan ajratilmaydi. Dunyoviy davlatda davlat diniy masalalarda rasman betaraf bo‘ladi yoki diniy masalalarga aralashishdan o‘zini tiyadi. Dunyoviy davlat o‘z fuqarolariga dinidan qat’i nazar, teng munosabatni ta’minlaydi va insonlarga ularning diniy e’tiqodi, mansubligiga ko‘ra hech qanday imtiyoz bermaydi. Boshqacha aytganda, dunyoviy davlatda dinni siyosiy lashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi, biroq ayni paytda diniy tashkilotlar va konfessiyalarning rivojlanishiga ko‘mak ko‘rsatiladi, ularning ichki ishlariga aralashilmaydi, dindorlarga diniy ehtiyojlarini qondirishlariga to‘sqinlik qilinmaydi.

Dunyoviy davlatning muhim xususiyatlaridan biri turli din vakillarining bag‘rikenglik va tinch-totuvlikda yashashidir. Jamiyatda turli tuman din va madaniyatlar vakillari mavjud bo‘lgan holda, davlat boshqaruvi va siyosati albatta bir mafkuraga yoki diniy qarashga asoslana olmaydi. Bunday sharoitda eng adolatli va to‘g‘ri yo‘l dunyoviy davlat bo‘lib, ushbu prinsip barcha dinlar hamda turli qarashlarni teng hurmat qilish, barcha fuqarolarning qonun oldida tengligini ta’minlaydi.

O‘zbekistonda 16 ta diniy konfessiyaga mansub 2337 ta diniy tashkilot faoliyat yuritmoqda. Turli diniy e’tiqodga mansub aholiga ega davlatda e’tiqod erkinligining kafolatlanishi siyosiy va huquqiy ahamiyat bilan birga ijtimoiy ahamiyatga ega. Shu bois, har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmasligi huquqiga egaligi, diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmasligi belgilangan bo‘lib, shaxsning diniy e’tiqodi bo‘yicha unga qo‘shimcha huquq yoki majburiyatlar yuklanmaydi. Dunyoviy davlat tamoyili dunyoga va dunyoviy islohotlarga yo‘l ochadi. Ma’rifatparvar jadid bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiy ta’kidlaganidek, “Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur”. Dunyoviylik ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot ehtiyojlariga hamohang bo‘lib, modernizatsiya jarayonlarini harakatlantiruvchi kuchdir. U jamiyat ilmiy salohiyatining uzluksiz oshib borishi, texnologik taraqqiyotning davomiyligi, iqtisodiy hayotning ratsionallashuvi, madaniyatning yuksalib borishi kabi muhim jarayonlar bilan uyg‘un ravishda takomillashib boradi.

Dunyoviylik demokratiyaning muhim sharti bo‘lib, erkinlikni va uning muhim qismi bo‘lgan diniy erkinlikni, jamiyatda boshqacha fikrlaydigan, diniy qarashlari o‘zaro mos kelmagan insonlarga nisbatan bag‘rikenglikni nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, odamlar o‘zlarining vijdon va din masalalarida erkin bo‘lishini istashsa, boshqacha qarashlar ham borligini va ularning ham haq-huquqlari borligini tan olishlari va ularning tanloviga hurmat bilan munosabatda bo‘lishlari talab qilinadi [2].

Dunyoviylik ateizm, dinsizlik yoki dahriylik degani emas. Dunyoviylik tushunchasini diniylik bilan mutlaq qarama-qarshi qo‘yish to‘g‘ri emas. Ular dunyo va inson hayotining mohiyatiga turlicha qarash usullaridir. Dunyoviylik tushunchasida diniy tashkilotlarni siyosiy tashkilotlardan ajratish va diniylikni barcha uchun asos qilib olmaslik tamoyili turadi. Dunyoviy taraqqiyot yo‘lini tutgan davlatlarda garchi din davlatdan ajratilgan bo‘lsada, jamiyatdan ajratilmaydi, diniy tashkilotlarning o‘z faoliyatlarini amalga oshirish hamda mamlakat va jamiyat hayotida faol ishtirok etishlari uchun barcha shart-sharoit yaratib beriladi. Xususan, o‘tgan qisqa davrda

